

BOBUR KUTUBXONASI

MA'NAVIY - MA'RIFIY JURNAL • ДУХОВНО-ПРОСВЕТИТЕЛЬСКИЙ ЖУРНАЛ



3/2024

ISSN 2181-3280

Mustaqil O'zbekiston 33 yoshda



- ▶ **3-bet** Tarixga muhrlangan tarixchi olim
- ▶ **8-bet** Ilmsiz millat, qavm asir va zaif qolur
- ▶ **12-bet** Чтения книг и нейрпсихология
- ▶ **16-bet** Axborot-kutubxona faoliyatida ijtimoiy tarmoqlarning o'rne
- ▶ **20-bet** Kutubxona faoliyatida o'lkashunoslik targ'iboti
- ▶ **24-bet** Munavvar yurt farzandi
- ▶ **28-bet** Ijodkorning sharaflı yo'li

MUSTAQIL O'ZBEKISTON

33 YOSHDA



AHOLI SONI:

2025-yil 1-yanvar holatiga ko'ra, O'zbekistonning doimiy aholisi soni 37 million 543 ming 167 kishini tashkil etgan.



O'zbekistonning umumiy maydoni 448,9 ming km^2 ni tashkil etadi.

Davlat tili: «O'zbek tili»

Axborot-kutubxona markazi tomonidan
2022 yildan nashr qilinmoqda.

Har chorakda chop etiladi
-o'zbek, rus va ingliz tilida

Tahrir kengashining raisi
G.Ismailova

Muxarrir
O.Axunjanova


Texnik muxarrir
I.Muxtarov

Kengash a'zolari
N.Kosimova - professor, psixologiya fanlari
nomzodi dotsent.

B.Yarkinova - filologiya fanlari nomzodi,
dotsent.



**Bobur nomidagi Andijon viloyati
axborot-kutubxona markazi**



1-qavat foye

Духовно-просветительский журнал

Издаётся Андижанским областным информационно - библиотечным центром имени Бабура с 2022 года

Выходит ежеквартально
на узбекском, русском, английском языках.

Председатель редакционного Совета
Г.Исмаилова

Редактор
О.Ахунжанова

Технический редактор
И.Мухтаров

Члены Совета
Н. Косимова — профессор, кандидат
психологических наук, доцент.

Б. Яркинова — кандидат филологических
наук, доцент.

MUNDARIJA

TARIXIY MEROS

Gulnoraxon Ismailova

Tarixga muhrlangan tarixchi olim.....3

QATAG'ON QURBONLARI HOTIRASIGA

Odina Rasulova

Ilmsiz millat, qavm asir va zaif qolur.....8

O'QISH HAQIDAGI FAN

Nargiza Kosimova

Чтение книг и нейропсихология.....12

VOQEA

Nigora Yuldasheva

Пушкинские дни в Андижане.....16

KUTUBXONA VA IJTIMOYIY TARMOQLAR

Dilafruz Karimova

Axborot-kutubxona faoliyatida ijtimoiy
tarmoqlarning o'рни.....20

O'LKASHUNOSLIK

Zebo Davlatova

Kutubxona faoliyatida o'lkashunoslik
targ'iboti.....24

Ashurxon Yuldasheva

Munavvar yurt farzandi.....28

Shoxidaxon Shokirova

Ijodkorning sharaflı yo'li.....32

KITOBXONLAR IJODI

To'liqin Siddiq

Bolalar uchun sehrli juftak.....37

KUTUBXONAGA BAG'SHIDA HAYOT

Yubiley bilan tabriklaymiz!!!.....42

Hamisha qalbimizda yashaydi.....46

ANDIJONLIK MASHHURLAR

Включен в «Топ-100 людей
современной России».....47

Jurnal 2021 yil 17 sentyabrda O'zbekiston
Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi
huzuridagi Axborot va ommaviy
kommunikatsiyalar agentligi
tomonidan № 1212 raqam bilan
ro'yxatga olingan.

Jurnaldan ko'chirib bosilganda «Bobur
kutubxonasi» ma'naviy-ma'rifiy jurnalidan
olinganligi ko'rsatilishi shart.

Bosmaxonaga 10.08.2024 yilda berildi.
Bosishga 18.08.2024 yilda ruxsat berildi.
Qog'oz formati 60x84 1/8.
Nashriyot hisob tabog'i 6,5.
Adadi 50 dona.

Jurnal «BIZNES POLIGRAF» M.CH.J
bosmaxonasida chop etildi.
Manzil: Toshkent, Chilonzor tumani
Katta qozirobod 65-uy.
Tel: +99891 135-76-73

ALOQA UCHUN MA'LUMOT:

Manzil: Andijon sh.,
A.Fitrat ko'chasi, 232-uy.
Tel.: 74-223-79-80
Veb-sayt: jurnal.libbobur.uz
Telegram: t.me/andakmbot

TARIXGA MUHURLANGAN TARIXCHI OLIM



Gulnoraxon Ismailova
Bobur nomidagi Andijon viloyati
axborot-kutubxona markazi direktori

Аннотация: Статья посвящена жизни и научной деятельности академика Бурибоя Ахмедова (1924–2002) – выдающегося узбекского востоковеда и источниковеда. Отмечаются его вклад в изучение этнической истории узбекского народа, эпохи Тимура и тимуридов, а также подготовку новых поколений учёных. Подчёркивается значение его богатого научного наследия и международное признание.

Tarix insoniyatning buyuk xotirasidir. Tarix sahifalarida ochilgan va ochilmagan sir-sinoatlar, o'zgacha sharhu talqinlar mujassam. Ajdodlarimizning ma'naviyati, madaniyati va amalga oshirgan ishlarini biz tarix saxifalarini varaqlab bilib olamiz. Undan olingan ma'lumotlar, xulosalar va faxr tuyg'usi inson uchun kelajakka qo'yiluvchi ishonchli qadam manbai bo'ladi. Tarixsiz kelajakka qadam bosib bo'lmaydi.

Tarix bo'yicha kitob yozish juda murakkab. Tarix kitoblari albatta tarixiy manbaalarga tayangan xolda yoziladi. O'zbek xalqining tarixiga oid bir kitob yozish uchun juda ko'p tarixiy manbaalarga murojat qilish va buning uchun bir qancha yillar izlanish kerak bo'ladi. Xalqimizning eng qadimgi tarixi haqida Gerodot, Ksenofont, Ktesiy, Polibiy, Diodor, Strabon, Kursiy Ruf, shuningdek xitoy, arman, arab mualliflari yaratgan yozma ►

manbalarda uchratish mumkin. Qadimdan o'zbeklarning tarixi haqidagi ma'lumotlar saroy yilnomachilari, tarixchilar, xonlar, podshohlar tomonidan qo'lyozma manbaalar shaklida jamlanib borilgan. Tarixchi olimlarimiz tarix kitoblarini yozayotganda juda ko'p izlanadilar, safarlarga chiqadilar, kutubxonalar, arxivlarga juda ko'p murojaat qilib tarixiy qo'lyozmalarni izlab topadilar, o'rganadilar, ilmiy tadqiqot ishlarini olib borib bu o'rganishlar chog'ida juda ko'p tarixchi olimlarni tarix haqida yozgan xatoliklarini topadilar va asoslangan tarixiy manbaalarga tayanib tarix bo'yicha kitoblar yozib xalqimizga taqdim qiladilar.

Ana shunday murakkab yo'lni tanlab, butun xayotini tarix va sharqshunoslik fanlarini rivojlantirishga bag'ishlagan Andijon farzandi, hamyurtimiz sharqshunos, manbashunos olim, X-IX asrlarga oid fors man'balari bo'yicha yirik mutaxassis, tarix fanlari doktori, professor, O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasining akademigi, O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan fan arbobi, Abu Rayhon Beruniy nomidagi Davlat mukofoti sohibi, Rossiya Federatsiyasi Fanlar akademiyasining faol a'zosi Bo'riboy Ahmedov bo'ladi.



Ana shunday yuksak bilimga ega, xayoti mashaqqatlarga to'la ilmiy izlanishlardan iborat bo'lgan, ilmu - fanga xizmat qilmoqni umr mazmuni deb bilgan ilm - fan sohibi Bo'riboy Axmedov 1924 yil 12 avgustda Buyuk Ipak

yo'li kesib o'tgan qadimiy Andijon viloyatining Qo'rg'ontepa tumani (sobiq Ilichevsk qishlog'i) hozirgi Qorasuv shahrida oddiy dehqon Ahmadxon Tojixo'jayev oilasida tavallud topadi. Onasi Rohilaposhsha Kamolova uy bekasi bo'lgan. O'n uch yoshida otasi "Kolxoz tuzumini haqorat qilgani uchun" deb o'n yilga qamab yuboriladi. To'ng'ich farzand sifatida oilaning butun tashvishi uning zimmasiga tushadi. Onasi bilan jajji singlisi va ikki nafar ukasini boqish uchun yosh Bo'riboy ishlashga majbur bo'ladi. U maktabda o'qish bilan birga tuman bosmaxonasida harf teruvchilik qila boshlaydi. 1940 yil 8-sinfni bitirgach Andijon pedagogika bilim yurtiga o'qishga kiradi. 1941 yili urush boshlanadi. Dahshatli urush 1418 kun davom etadi va 26 milliondan ortiq insonlarning hayotiga zomin bo'ladi.

To'g'risini aytsam, o'tmishim haqida, ayniqsa o'sha qirg'inbarot urush yillari haqida gapirishni yoqtirmayman. Qalbdagi yaralar yangilanadi. Shuning uchun "urush yillari hamma qiynalgan", - deb qo'yaqolaman. Og'ir bo'lsa-da urush yillari boshimdan o'tgan voqealardan ikkitasini qisqa qilib aytib bermoqchiman.

Birinchisi – Kursk yonida bo'lgan urush. Bu urush 1943 yil 5 iyuldan 23 avgustgacha bo'lgan edi. Men o'shanda general S.Martirosyan boshchilik qilgan 340-diviziyada xizmat qilardim. Bizning qismimiz 1943 yil fevral-mart oyida olib borilgan janglar natijasida Voronej, Kursk, Orel, Beltoroya, Xarkov va Suma viloyatlarining katta qismi ozod etilgan edi. Lekin, nemis-fashist qo'mondonligi qo'shinlarimizni shu yerda to'xtatishga muvaffaq bo'ldilar. Nemis-fashistqo'mondonligi bizdan shu yerda Stalin-grad uchun o'ch olmoqchi bo'ldilar. Buning uchun ular Kursk yoni atrofida 70 ta diviziya to'pladilar. "Fokke-Vulf-190", "Xenshel-129" markali yangi jangovar samolyotlar va "Tigr", "Pantera" tanklari va "Ferdinang" atalmish yangi zambaraklarni ishga solidlar. Qirq sakkiz kun og'ir janglar bo'ldi. Tanklar va zambaraklarning tutini, chang-to'zon kuppa-kunduzi xatto quyoshga ham soya soldi. Ko'p odim o'ldi, lekin pirovardida biz g'olib keldik. Kursk yonida

bo'lgan hayot-mamot olishuvi urush taqdirini hal qildi. Men, ko'plar qatori, shu 48 kun davom etgan og'ir urushda do'zax azobini tortdim. Oxiri og'ir yaralandim.

Bo'riboy Ahmedov esdaliklaridan

Bo'riboy Ahmedov ham yosh bo'lishiga qaramay 1942-1945 yillarda urush jangohlarida ishtirok etadi. Kishilik tarixidagi eng qonli, eng katta yo'qotish va mislsiz qurbonlarga, el-yurtimizda qancha-qancha musibat va ofatlar, g'am-alamlarga, beva-bechoralar va yetimlarning paydo bo'lishiga sabab bo'lgan beshafqat urushda yarim milliondan ziyod o'zbekistonliklar halok bo'lgan. Bo'riboy dastavval Stepnoy, Voronej frontlari, keyin, to 1944 yilning 2 mayigacha, birinchi Ukraina frontlari tarkibida jang qiladi, Gryazi, Noviy va Stariy Oskol, Suma, Lvov shaharlarini ozod qilishda ishtirok etib frontda ko'rsatgan jasoratlari uchun hukumatning ko'pgina jangovor orden va medallari bilan mukofotlanadi. To'rtinchi marta yarador bo'lganda armiya safidan bo'shatilib, ona yurti Qorasuvga qaytib keladi.



Ikkinchisi – men yuqorida tilga olgan 1944 yilning 2 mayida sahar paytda G'arbiy Ukrainaning Chertkiv shahardan bir oz G'arbda yuz berdi. Qo'shinlarimiz nemislarning qattiq qarshiligiga uchrab, qariyb yigirma kun o'rnidan

siljiy olmay qoldilar. Nemis-fashistlar shu yerda mustahkam mudofaa chizig'ini tashkil qilib, jonjahdi bilan qarshilik ko'rsatdilar. Qo'mondonlik nemis-fashist qo'shinlarining ahvoli va rejalarini bilib kelish uchun deyarlik har kuni nemislarning orqa tomoniga razvedkalar guruhlarini yuborib turdi. Lekin natija bo'lmadi. 1944 yilning 1 mayidan 2 mayga o'tar kechasi qo'mondonlik nemis qo'shinlarining orqa tarafiga to'rtta razvedkachilar guruhini yubordi. Shularning biriga men boshchilik qildim. Bizning oldimizga dushman orqasiga o'tib, uning biron shtabini bosish, muhim xujjatlarni qo'lga kiritish va "til" olib kelish vazifasi qo'yildi. Guruhlardan ikkitasi, bizning guruhimiz ham, qo'yilgan vazifani ado etib qaytdik. Qogan ikki guruh halok bo'ldi.

Bunday misollarni istgancha keltirish mumkin. Lekin biz hammamiz bu jasoratni Muqaddas Vatan deb qilganmiz. Katta leytenat Bo'riboy Ahmedov.

Bo'riboy Ahmedov esdaliklaridan

Urushdan qaytganidan so'ng u tuman gazetasida mas'ul kotib bo'lib ishlaydi. 1948 yilda Toshkentdagi O'rta Osiyo dorilfuniga o'qishga kiradi. 1953 yili oliygohning Sharqshunoslik bo'limini imtiyozli tamomlab, o'z qishlog'iga qaytadi va 1-o'rta maktabda tarix o'qituvchisi, so'ng maktab direktori vazifalarida ishlaydi.

Bo'riboy Ahmedov 1957 yili aspiranturaga kiradi. Barcha moddiy qiyinchiliklarni yengib, aspiranturani muvaffaqiyatli tamomlaydi va 1961 yilda Rossiyaning sobiq Leningrad shahrida "Abul Xayrxon davrida ko'chmanchi o'zbeklar davlati" mavzusida nomzodlik dissertatsiyasini va 1974 yilda "XIV asr oxiri va XV asrning birinchi yarmida Balx xonliklari" mavzusidagi doktorlik dissertatsiyasini himoya qiladi.

Olim 1960 - yildan 2002 yilgacha O'zbekiston Fanlar akademiyasi, Abu Rayxon Beruniy nomidagi O'zbekiston Fanlar Akademiyasi Sharqshunoslik institutida ilmiy xodim, 1961-1962 yillarda katta ilmiy xodim, 1962-1965 yillarda ilmiy kotib, 1988-2002 yillarda esa bo'lim boshlig'i, bosh ilmiy xodim vazifalarida ►

ishlagan. Shu bilan birga, Toshkent davlat sharqshunoslik institutida “Sharqshunoslik”, “O’rta Osiyo feodal xonliklarining davlat tuzilishi” mavzularida ma’ruzalar o’qigan. Parijda o’tkazilgan Amir Temurga bag’ishlangan xalqaro anjumanda qatnashib ma’ruza qilgan. U Kembrij va Hindiston universitetlarining faxriy professori bo’lgan.

Abu Rayhon Beruniy nomidagi sharqshunoslik institutida 42 yil ishlab, kichik ilmiy xodimlikdan Akademik darajasigacha ilm yo’lini bosib o’tgan Bo’riboy Ahmedov ijtimoiy-siyosiy tarixga bag’ishlangan manbashunoslik nuqtayi nazaridan olib borgan salmoqli tadqiqotlari bilan butun jahonda o’z obro’sini topdi, tanildi. Ayniqsa Temur va Temuriylarning jahon tarixida tutgan o’rnini teran baholanishida olimning xizmati katta bo’ldi. Uning qalamiga mansub “Amir Temur” romani esa ulug’ sarkardaning tarixiy-badiiy qiyofasining yara-tilishida alohida o’ringa ega. Amir Temurga bag’ishlangan YUNESKO ishtiroki bilan Samarqand Parij hamda Toshkent shaharlarida o’tkazilgan 660 yillik bayram to’yidagi bir qancha xalqaro forumlarning tashkillashtirilishida hamda Amir Temur va Temuriylarga oid qator monografiyalar, ilmiy to’plam va albomlar chop ettirilishida Bo’riboy Ahmedov ulkan tashkiliy mahorat ko’rsatdi. Uning ssenariysi ostida “Buyuk Temur” filmi ham ro’yobga chiqdi.

Ahmedovning ilmiy faoliyati o’zbek xalqining etnik tarixi va shakllanishi, manbashunoslik, O’rta Osiyo xalqlarining X-XIX - asrlardagi ijtimoiy-siyosiy tarixi, Temur va temuriylar davri tarixi hamda madaniyati kabi muhim yo’nalishlarga qaratilgan. U o’zining o’zbek, rus, ingliz, fors, arab va pashto (afg’on) tillarida chop etilgan 350 ga yaqin kitob va ilmiy maqolalarida Markaziy Osiy xalqlarining X-XIX asrlardagi tarixining o’rganilmagan yoki kam o’rganilgan sahifalarini yozib berdi, arab, forsiy va turkiy tillarda yozilib, xalqimizning boy tarixi va ko’hna madaniyatini o’rganishda muhim manba bo’lib xizmat qilishi mumkin bo’lgan birtalay muhim qo’lyozma asarlarni tahlil etib o’zbek hamda rus tillarida nashr

qilib keng kitobxon ommasiga yetkazib berdi. Xususan o’zbek xalqining kelib chiqishi, Temur va Temuriylar davri tarixi va madaniyatini o’rganishga katta hissa qo’shdi. Olimning shu mavzuda yozgan “Государство кочевых узбеков”, “O’zbek xalqining kelib chiqishi”, “Balx tarixi”, “Историко-географическая литература Средней Азии XVI-XVIII вв”, “O’zbekiston tarixi manbalari”, “Amir Temur davlati”, “Temur va Temuriylar davrida Movarounnahr va Xuroson” kabi kitoblari; Hofiz tanish Buxoriy, “Abdullanoma” (j. I-II), Mahmud ibn Vali, “Mope Тайн”, Davlatshoh Samarqandiy, “Tazkirat ush-shuaro”, “Navoiy zamondoshlari xotirasida”, Abu Toxirxo’ja, “Samariya”, “Ajdodlar o’giti” kabi tarjimalari; uning tahriri va ishtirokida chop etilgan “Temur tuzuklari”, “O’zbekiston xalqlari tarixi”, “Samarqand tarixi” kitoblari; “Материал по истории Средней Азии и Восточного Туркестана”, “Материалы к этнической истории населения Средней Азии”, “Материалы по истории Средней и центральной Азии”, “Из истории эпохи Улугбека” kabi majmualari butun dunyo ilmiy jamoatchiligi tarafidan e’tirof etilgan va keng foydalanilmoqda. Uning ko’plab asarlari ingliz, fransuz, rus va boshqa xorijiy tillarga tarjima qilingan.



Bo’riboy Ahmedov tom ma’noda alloma edi, u ilmu - fanga xizmat qilmoqni umr mazmuni deb bildi, ilmu - fan esa shu xalqning sharafiga, Vatanning faxri edi. Halollikni mahkam tutgan olimning ilmiy merosiga nazar tashlansa, ijodi kuzatilsa, ularning xalqimiz tarixining o’ziga xos ko’zgusiga aylanganini ko’rish mumkin.

Bo'riboy Ahmedov sharqshunos kadrlarni tayyorlashda ham o'zining katta hissasini qo'shgan. U 40 nafar fan doktori va nomzodlarini tayyorlagan tajribali murabbiy. Qo'shni respublikalar Qozog'iston, Qirg'iziston, Turkmaniston, Tojikiston hamda bir qancha xorijiy mamlakatlar uchun ham sharqshunos mutaxassislarni tayyorlashda uning beqiyos xizmatlari va alohida o'рни bor.

Akademik B.Ahmedov milliy mustaqilligimizni mustahkamlash, mamlakatimiz fanining taraqqiy etishi hamda xalqimizning ma'naviy yuksalishi yo'lidagi qo'shgan ulkan xizmatlari, xalqaro ilmiy aloqalarni mustahkamlash va qo'shni mamlakatlarning ilm faniga rivojiga qo'shgan hissasi uchun Beruniy nomidagi O'zbekiston Davlat mukofoti, "Amir Temur", "Do'stlik" va "Buyuk xizmatlari uchun" ordenlari hamda Qirg'iziston Respublikasining xalqaro "Misr" mukofoti bilan taqdirlangan.

Ana shunday Ilmni muqaddas, tarixni taqdir deb bilgan buyuk adib 2002 yil 15 mayda Toshkent shahrida vafot etadi.

Bo'riboy Ahmedovning ilmiy ishlarini uning shogirdlari va farzandlari faoliyatida davom etmoqda. Tarix fanlari nomzodi Muzaffar Ahmedov otasi kabi sharqshunos va O'rta Osiyo hamda Shimoliy Hindistonning Boburiylar (1526-1857) davri bo'yicha mutaxassis bo'lib, u Boburiylar davri tarixnavisligi hamda O'rta Osiyoda yozilgan bir qancha ahamiyatli manbalar ustida ilmiy tadqiqotlar olib bormoqda.

Bu yil Vazirlar Mahkamasining 2024 yil 14 fevraldagi Farmoyishi bilan tasdiqlangan Adabiyot, madaniyat va san'at, ilm-fan sohalari atoqli namoyandalarning tavallud sanalarini munosib nishonlash hamda faoliyatini keng targ'ib etish dasturi doirasida Akademik Bo'riboy Ahmedov tavalludining 100 yilligi munosabati bilan respublikamiz miqyosida juda katta tadbirlar o'tkazilmoqda. Shu o'rinda Bobur nomidagi Andijon viloyat axborot – kutubxona markazida Andijon davlat universiteti, 7553-1404-harbiy qismlar bilan hamkorlikda buyuk adibning xayoti va faoliyatiga bag'ishlab "Haqiqiy alloma edi" mavzusida kitobxonlar

anjumani tashkil etildi. Anjumanda qatnashish uchun Toshkentdan adibning farzandlari va yaqinlari, tug'ilib o'skan yurtidan bir qancha hamshaharlari kelishdi. Tadbir davomida tarix fanlari doktori, professor R.T.Shamsutdinovning "Bo'riboy Ahmedov ilmiy ishlanishining yo'nalishlari va O'zbekiston tarixi faniga qo'shgan xissasi" mavzusidagi ma'ruzasi yorqin xotiralar, tarixiy dalillarga boy bo'ldi. Olimning farzandlari, qizi – Mahalla fuqarolar yig'ini xotin-qizlar faoli Ra'noxon Axmedova, o'g'li – "Ijtimoiy fanlar instituti" rektori, tarix fanlari nomzodi Muzaffarjon Axmedov otasi haqidagi xotiralarida uning o'z vataniga bo'lgan yuksak muhabbati, xalqining tinchligi va ravnaqi yo'lidagi kuchli ma'suliyati, farzandlar tarbiyasida ham o'zida mujasam bo'lgan bu sifatlarini, majburiyatlarini ularga singdirishga harakat qilgani haqida mag'rurlanib esladilar. Andijon Davlat universiteti "O'zbekiston tarixi" kafedrasida o'qituvchisi M. Sultonova adibning tarix fani rivojiga qo'shgan samarali faoliyati va hozirgi kunda ularning ilmiy iste'molga kiritgan ilmiy ishlari va asarlari hamda darsliklarining yuqori malakali tarixchi-sharqshunos kadrlarni tayyorlashdagi ahamiyati va tug'ilib o'sgan shahridan kelgan faollarning esa adibning yoshlik davrlari, urushdagi qahramonliklari haqidagi chiqishlari ishtirokchilarda katta qiziqish uyg'otdi.

Hamyurtimiz, buyuk olim Bo'riboy Ahmedov o'zidan juda katta ilmiy, adabiy, ma'naviy meros qoldirdi. Ularning porloq xotirasi hamisha qalblarimizda yashaydi.

Sizlarga Axborot-bibliografiya bo'limi bibliograflari tomonidan akademik Bo'riboy Ahmedovning ilmiy izlanishlari bibliografiyasini taqdim qilmoqchiman. ■

Foydalanilgan manba:





Odina Rasulova

Andijon viloyati axborot-kutubxona
markazi huquqiy axborotlar sektori mudiri

**Ilmsiz millat,
qavm asir va
zaif qolur...**

Аннотация: Потомку тюркского шейха предстояло сыграть одну из ведущих ролей в развитии движения джадидов. И стать идеологом и лидером джадизма. Бехбудий как и другие джадиды выступал за развитие национального искусства и литературы, равноправие женщин, реорганизацию деятельности духовенства, преподавание в школах на национальном языке, за реформы политического устройства страны. Он боролся за введения в мусульманских школах нового метода обучения, ряда светских предметов. Он был в Москве, Петербурге, Казани и Нижнем Новгороде, выступал по проблемам культуры мусульман. Свыше 200 публикаций на эту тему принадлежат ему.

“Turkistonni savodli va ma’rifatli, to’q va farovon, ozod va obod vatanga aylantirish, birinchi navbatda, mustaqillikka erishish, mustamlakachilik iskanjasidan xalos bo’lish jadidchilik xarakatining asosiy maqsad-vazifasini tashkil qilar edi”.

Professor Begali Qosimov

Bu davrga kelib jamiyatning eng ilg’or fikrli qatlamlari kurashlarini aks ettirgan milliy uyg’onish muayyan mafkura sifatida, birinchi navbatda, ma’rifatchilikda ko’rindi. Ana shunday mafkuraning jarchilari bo’lgan jadidlar esa keng miqyosli amaliy faoliyat bilan o’z g’oyalarining jamiyat hayotida qaror topishi, mustahkamlanishi va oxir-oqibat ular ko’zlagan milliy ozodlik, siyosiy mustaqillik kurashlariga o’sib o’tishi uchun zamin yarata boshladilar. Bu butun Turkiston xalqining ijtimoiy-siyosiy tafakkuri taraqqiyotida yangi bir bosqich edi.

O’tgan asrning boshlarida Mahmudxo’ja Behbudiy yurtimizdagi jadidchilik xarakatining yetakchilaridan biri bo’lgan. U ziyoli oilada tug’ilib, tarbiya topgani bois ko’p bilimlarni puxta egallagan va chorizm tuzumida mahalliy aholi uchun ilm, ma’rifat juda zarur ekanini anglab yetgan. Markaziy Osiyodagi jadidchilik harakatida Mahmudxo’ja Behbudiy asosiy o’rinlardan birini egallaydi. U Turkiston ziyolilari, xorijdagi bunday harakat faollari bilan mustahkam aloqa o’rnatgan. Turkistonning birligi, mustaqilligi uchun kurashgan. Aniqrog’i, o’sha davrda ozodlik uchun kurashning yalovbardoriga aylangan.

Mahmudxo’ja Behbudiy 1875-yilning 30-yanvarda Samarqand shahrining Yomini mahallasida, (ayrim ma’lumotlarda esa 1875-yilning 19-yanvarida Samarqand yaqinidagi Baxshitepa qishlog’ida) muftiy oilasida tavallud topgan. Otasi Behbudxo’ja Solihxo’ja o’g’li turkistonlik, Ahmad Yassaviyning avlodlaridan, ona tomonidan bobosi Niyozxo’ja urganchlik bo’lib, amir Shohmurod zamonida (1780 - 1785-yillar) Samarqandga ko’chib kelgan. Oiladagi muhit undagi ma’rifat va adabiyotga bo’lgan mehrini tezroq ro’yobga chiqishiga imkon yaratil. Behbudiyning otasi islom huquqshunosligi bo’yicha yirik mutaxassis bo’lib, bu borada ko’plab kitob va risolalar yaratgan. Bu o’z navbatida

Mahmudxo’jaga ta’sir o’tkazmay qolmadi. Mahmudxo’ja Behbudiy 6-7 yoshlarida tog’asi Muhammad Siddiq huzurida o’qib savod chiqaradi, shuningdek arab tili grammatikasi, aqida va shariat qonunlari bo’yicha bilim oladi. Behbudiy dastlab Samarqand madrasasida, keyinchalik Buxoro madrasalarining birida tahsil olgan.

18 yoshida madrasa ta’limini tugatadi va Samarqand viloyati Chashmaob qozixonasida mirzalik qiladi, qozi lavozimlarida ishlaydi. U shariat qonunlarini puxta o’zlashtiradi va mufti darajasiga ko’tariladi. 1893-yili onasi, 1894-yili otasi vafot etadi. Otasining vafotidan sal oldinroq uylangan Mahmudxo’ja 4 o’g’il va 1 qiz farzand ko’radi.





Yosh Mahmudxo’janing dunyoqarashini shakllanishida Rossiya jadidchilik harakatining asoschisi Ismoilbek Gaspiralining xizmati katta bo’lgan. Sharq G’arbning tarix va madaniyatini chuqur bilgan, arab, fors tillari bilan bir qatorda ingliz, nemis, fransuz tillarida ham erkin gaplasha oladigan bu kishi 1881-yilda rus tilida “Rusiya musulmonligi” kitobini yozadi. 1884-yilda Ismoilbekning mashhur “Tarjumon” gazetasiga obuna bo’lgan 1000 kishining 200 tasi Turkistondan edi. ►

Mahmudxo'ja Behbudiy horijiy mamlakatlarda nashr etiluvchi turkiy va forsiy nashrlar bilan tanishib boradi. 1899-1900-yillarda Behbudiy buxorolik do'sti Hoji Baqo bilan haj safariga chiqadi va Arabiston, Misr, Turkiyani kezib, sayohat davomida yangi maktab (usuli ata) ochish fikrini mustahkamlab bordi. "1318 sanai hijriyasi tavofi Baytullog'a Kavkaz yo'li ila Istanbul va Misr al-Qohira vositasi-la borib edim. Muddati safarim sakkiz oydan ziyoda cho'zilub edi", - deb yozadi Behbudiy bu haqda. So'ngra Qozon va Ufa shaharlarida bo'ldi, keyinchalik Yevropa madaniyati bilan ham qiziqdi. Dunyo ko'rishi bejiz ketmaydi. Safar yangi maktab haqidagi qarashlarini mustahkamlaydi.

Katta zakovat va haroratli qalb egalari bo'lgan bu harakat tashabbuskorlari turkiston xalqlarining boshi berk ko'chaga kirib qolganliklaridan chuqur tashvishga tushdilar. Ham chorizm, ham mahalliy amaldorlarning ikkiyoqlama zulmi ostida qolgan keng ommaning behad qashshoqligi, dunyoning iqtisodiy rivojlangan mamlakatlardan haddan ziyod ortda qolganligi, madaniy qoloqlik, fikrlashdagi turg'unlik jadidlarda ijtimoiy taraqqiyotni tezlashtirishning amaliy vositalarini izlash fikrini uyg'otdi. Ular xalqni ma'rifiy qoloqlikdan chiqarish uchun ta'limni islohotlarni dastlabki bosqichdagi asosiy masala qilib qo'ydi. Bu borada nafaqat nazariy jihatdan, balki amaliy tomondan ham ko'p kuch-g'ayrat sarflashdi. Jadidlar yangi usuldagi maktablar, kutubxonalar, o'quv zallari ochishdi, darslik va o'quv qo'llanmalari yozishdi. Mahmudxo'ja Behbudiy XX-asr bo'sag'asidagi Turkistonning orzu-armonlaridan biri sifatida maydonga keldi. U tariximizning g'oyat og'ir va murakkab bir davrida yashadi. XVI-asrdan boshlangan inqiroz va turg'unlik, jaholat va mutaassiblik avj pardasiga chiqqan, o'zaro janjal, mahalliy urug'chilik nizolari millatni butunlay mahv bo'lish va Vatanni butkul g'orat etilishi xavfidan asrab qolish, avlodlarni erk va ozodlik, mustaqillik ruhida tarbiyalash, ma'rifat va taraqqiyotga boshlash jadidlar nomi bilan tarixga kirgan Behbudiy boshliq fidoiylar zimmasiga tushadi.

Mahmudxo'ja Behbudiy Samarqand yaqinidagi Halvoyi qishlog'ida Ajziy, Rajabamin qishlog'ida Abdulqodir Shakuriylar bilan hamkorlikda yangi maktab ochadi. Behbudiy Qozon va Ufaga borib (1903-1904), u yerdagi yangi usul maktablari bilan tanishadi, tatar ziyolilari bilan aloqani yo'lga qo'yadi. Yangi maktablar uchun darsliklar tuzishga kirishadi. «Risolai asbobi savod» («Savod chiqarish kitobi», 1904), «Risolai jug'rofiyai umroniy» («Aholi geografiyasiga kirish», 1905), «Muntahabi jug'rofiyai umumiy» («Qisqacha umumiy geografiya», 1906), «Kitobat ul-atfol» («Bolalar xati», 1908), «Amaliyoti islom» (1908), «Tarixi islom» (1909) kabi kitoblar chop ettiradi. Keyinchalik (1908-yilda) Shakuriyning Rajabamindagi maktabini Samarqanddagi o'z hovlisiga ko'chirib keltiradi. Behbudiy 1911-yilda «Padarkush» dramasini yozadi.



Bu birinchi o'zbek dramasi edi. 3 parda va 4 manzarali bu asar mazmunan sodda bo'lib, o'qimagan, johil va nodon bolaning o'z otasini o'ldirgani haqida edi. Behbudiy bu asar janrini «milliy fojia» deb atagan. Nashr qilishga chor senzurasini yo'l qo'ymaydi. «Padarkush» dramasi dastlab 1912-yilda «Turon» gazetasida bosilgan. Mana shu ehtiyoj va zarurat Behbudiyni teatr va matbuotga boshladi. «Padarkush» dramasi 1913-yildagina bosilib chiqadi. Kitob jildiga «Borodino jangi va Rossiyaning fransuzlar bosqinidan xalos bo'lishining yubiley sanasiga bag'ishlanadi» degan yozuv bilan Tiflis senzurasidan ruxsat olinadi. Bosilib chiqqandan keyin ham sahnaga qo'yish uchun yaqin bir yil

vaqt ketadi. Avloniyning "Turon" truppasi Koli-zey (hozirgi savdo birjasi binosi)da o'z faoliyatini mana shu "Padarkush" bilan boshlagan edi. Spektakl boshlanish oldidan Munavvarqori teatrning jamiyat hayotidagi o'rni haqida nutq so'zlaydi. Bosh rolni A. Avloniyning o'zi ijro etadi. Mahalliy matbuot bu kunni "tarixiy kun" deb yozadi. "Turon" truppasi 1914—1916-yillarda bu spektakl bilan butun Farg'ona vodiysini aylanib chiqadi. Bu bir tomondan millatni ma'rifat va taraqqiyot sari undashda katta ahamiyatga ega bo'lsa, ikkinchi tomondan professional o'zbek teatri va dramachiligining maydonga kelishi hamda taraqqiyotida muhim xizmat qildi. 1916-yilda Toshkentga kelib Kolizeyda "Turon"ning qator spektakllarini ko'rgan A. N. Samaylovich yozadi: "Turkistonda yangi adabiyot maydonga keldi. Bu men uchun kutilgan hol edi... Yangi adabiyotning markazi — Samarqand... Yosh qalamkashlarning bosh ilhomchisi samarqandlik mufti Mahmudxo'ja Behbudiydir".

Shu yil 20-avgustdan Behbudiy «Oyna» jurnalini chiqara boshladi. Haftalik, suratli bu jurnal asosan o'zbekcha bo'lib, she'r, maqola (forscha), e'lonlar (ruscha) ham berib borildi. Jurnal Kavkaz, Tatariston, Eron, Afg'oniston, Hindiston, Turkiyagacha tarqaldi. Behbudiy kitob nashrini ham yo'lga qo'yadi. Fitratning «Bayonoti sayyohi hindi» asarini ruschaga tarjima qildirib bostirdi (1913).

Behbudiyning hozircha aniqlangan maqolalarining soni 300 ga yetadi. Ular xilma-xil mavzuda. Ilk maqolalaridayoq kommunistik mafkurani keskin rad etgan, «hayoliy», «bu toifaga qo'shulmoq biz, musulmonlar uchun nihoyatda zararli» deb yozgan edi («Xayrul umuri avsatuho» — «Ishlarning yaxshisi o'rtachasidir»).

1917-yilning oxiri 1918-yilning boshlarida jadidlar qurgan ilk demokratik davlatchilik namunasi Turkiston muxtoriyatining taqdiri hal bo'layotgan bir paytda o'lka xalqlarini birlikka chaqiradi. Behbudiy ijtimoiy-siyosiy ishlarga qizg'in qo'shildi, musulmonlar orasidagi har qanday ixtilofga qarshi chiqdi. Shu qurultoyda

o'lka musulmonlar sho'rosining raisi etib saylandi.

Shu yilning 26-noyabrida Qo'qonda o'lka musulmonlarining favquloddagi IV-qurultoyi ish boshladi. 27-noyabrga o'tar kechasi "Turkiston muxtoriyati" e'lon qilindi. Bu mustamlakadan mustaqillik tomon qo'yilgan jiddiy va jasoratli qadam edi. Behbudiy may oyining boshlarida Samarqandga qaytadi. U yerda ko'p tura olmay Toshkentga keladi. Turkiston sho'rolar hukumati rahbarlari bilan muzokara olib borishga urinadi, ammo natija chiqmaydi. Albatta, Behbudiyning xalq o'rtasida ortib borayotgan obro'- e'tibori nafaqat amirlik rahbarlari, balki bolsheviklarining ham reja va niyatlariga zid edi. Orzulari chil-chil bo'lgan Behbudiy 1919-yilning bahorida, 25-martda parishon holda yo'lga chiqadi va Shahrisabzda qo'lga olinib, taxminan ikki oy o'tgach, Qarshiga keltirib zindonga tashlandi. Bir necha kundan so'ng Qarshi begi Tog'aybekning buyrug'i bilan zindon yakindagi "podsholik chorbog'i"da o'ldiriladi. Uning qatli haqidagi xabar o'sha paytdagi poytaxtimiz Samarqandda rosa bir yildan keyin ma'lum bo'ldi. 1920-yilning aprelida butun Turkiston motam tutdi.

Mustaqillik yillari Allomaning "Saylanma" asarlari chop etildi. Allolma haqidagi qator-qator nashrlar chop etildi. Asarlari darslik va qo'llanmalarga kiritilib, Toshkent va Samarqand shahridagi maktab, ko'cha va mahallalar uning nomiga qo'yildi. Buyuk ma'rifatparvar sharafiga 2006-yil Samarqand shahrida yodgorlik o'rnatilgan. Hattoki, Tojikiston Respublikasining Xo'jand shahridagi gimnaziya Behbudiy nomi bilan ataladi.

2020-yil O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi kuni arafasida Behbudiy hayotiga bag'ishlangan film premerasi bo'lib o'tdi. Hozirgi kunda alloma qoldirgan boy va rang-barang adabiy, madaniy va ma'rifiy meros o'z xalqining istiqboliga xizmat etmoqda. ■

Foydalanilgan manba:



ЧТЕНИЕ КНИГ И НЕЙРОПСИХОЛОГИЯ



Наргиза Косимова

Профессор Университета Экономики и педагогики. Кандидат психологических наук, доцент.

Annotatsiya: Muallif ushbu maqolada o'quvchilar e'tiborini neyropsixologiya kabi fanga qaratishga urinadi. Maqolaning maqsadi – kitob o'qish yangi neyron aloqalarni shakllantirishi, bu esa insonning eng muhim kognitiv funktsiyalari – tafakkur, xotira, diqqatni rivojlantirishi hamda o'quvchining yangi g'oyalar yaratishiga xizmat qilishini yana bir bor ta'kidlashdan iborat.

**Нейропсихология — наука о взаимосвязи
психических процессов (память,
внимание, речь, мышление и т.д.)
с работой головного мозга...**

Чтение играет важную роль в духовном и интеллектуальном развитии человека. При этом очень важно знать родителям, организаторам чтения и читателям основы нейропсихологии — науки, которая дает возможность установить уровень сформированности психических функций и готовности личности к обучению. В работе с читателем при подборке книг по его запросам родителям, учителям и библиотечным работникам важно предупредить или уменьшить трудности восприятия прочитанного им материала.

Нейропсихология помогает понять как чтение влияет на мозг человека и цель нашей статьи раскрыть некоторые особенности о нейропсихологических аспектах чтения и его влиянии на мышление человека.

В чем нейропсихологическое значение чтения?

Головной мозг по праву считается самой сложной системой человеческого организма: он управляет всей нашей деятельностью. Проследить связь между его работой и психическим поведением человека помогает нейропсихология

Согласно результатам научных исследований, чтение активирует разные участки мозга, что развивает нейропластичность мозга. В процессе чтения в мозге формируются новые нейронные связи, что улучшает важнейшие когнитивные функции (мышление, запоминание, внимание).

Чтение книг и психологические особенности нейропластичности означают, что нейропластические ткани возникают в результате разрастания дендритов (ветвь нейрона) в центральной нервной системе. Чтение активизирует мозг и меняет его структуру, т. е. формирует интеллектуальные оболочки. Человек получает новые знания, читая книги и этим укрепляет нейронные связи в мозге. Именно чтение книг и эмоциональный интеллект в гармонии друг с другом создают условия для формирования новых идей.

Президент Ш. Мирзиёев в одном из своих выступлений выдвинул идею того, что

«Чтение – это основа человеческого мышления». По анализам исследований психолог Л.С.Выготский также утверждает, что «Чтение – сложный процесс, в котором непосредственное участие принимают высшие психические функции в части мышления». Он объяснил, что общение с художественной литературой и персонажами может развить сочувствие.

Известно, что мышление взаимосвязано с нейропсихологией и изучает влияние чтения на эмоциональные переживания, которые положительно влияют на творческую и общественную деятельность человека. Также по результатам проведенных исследований доказано, что чтение также является эффективным способом снижения стресса и определена роль чтения в развитии релаксации и счастья.

А снижение стресса улучшает работу мозга, что положительно влияет на творческое мышление и принятие решений.

Чтение является важным фактором интеллектуального и духовного развития детей, где родителям, учителям и библиотекарям принадлежит важная роль в развитии интереса детей к чтению через помощь в выборе книг, обсуждению, поощрению их критического мышления, поддержки интересов ребенка, читающего книги. Работая в этом направлении, организаторам чтения и родителям нужно следовать следующим правилам:

- библиотекарь в своей работе с родителями должен уделять внимание тому, чтобы родители прежде, чем выбрать книгу для чтения ребенку, сам ее прочитал;

- родитель должен создать духовную атмосферу- это наличие книг в семье, выделение специального времени для чтения, совместное посещение библиотеки;

- библиотекарь должен работать с родителем по выбору книг, соответствующих возрасту и интересам их детей;

- определять интересы детей по содержанию и жанру; ►

- осуществлять совместное чтение с детьми и обсуждение прочитанного;

- говорить со своими детьми о книгах и прислушиваться к их мнению;

Следующий механизм влияния – поощрение чтения учителями:

- учителя должны подчеркивать важность чтения в процессе обучения;

- организовывать специальные мероприятия для поощрения чтения;

- рекомендовать книги, соответствующие интересам учебной программы и уровню образования детей;

- систематически предоставлять информацию о новых книгах, авторах и жанрах в соответствии с их возрастом и учебной программой.

Уместны обсуждение прочитанных книг, проведение вопросов и ответов о книгах в группах или командах, организация дебатов и конкурсов. На основе теоретического анализа эти методы имеют свойство формировать у детей, юношества, студентов знания и умения.

В настоящее время нейробиология активно развивается. Ее принципы и методы широко используются в работе не только с детьми, но и взрослыми.

В этом плане интерес вызывают речь, эмоции, виды мышления, способность к самостоятельному принятию решений и волеизъявлений, возможности контролировать любую деятельность.



Все эти механизмы нейробиология связывает с созреванием мозговых структур, которые отвечают за то или иное физическое или мыслительное действие, совершаемое человеком.

Исследования, эксперименты, опросы, которые проводятся среди студентов призваны выявлять функционирование мозга с тем, чтобы скорректировать «слабые стороны», спланировать дальнейшую работу, направленную на повышение его эффективности.

В частности, могу привести пример проведенного эксперимента среди студентов 2-ого курса, изучающих английский язык в университете экономики и педагогики

Наш интерес представляли следующие направления:

- «Мышление». Цель исследования: развитие творческого мышления обучающихся.

Используемый метод: студентам в группах давались разные задания для решения творческих задач.

И дискуссия (группа 10-11) была интересной, При подведении итогов стало ясно, что 80% учащихся этих групп ходят на дополнительные курсы, и практически большую часть времени проводят за чтением книг по искусству для подготовки к уроку. Результаты показали, что это эффективно активизирует творческое мышление.

Иную картину показала дискуссия в группах 12-13, студенты которой заявили, что они все работают в учебных курсах и что у них нет времени на чтение книг.

2. В определении познавательных способностей участвовали одни и те же студенты.

Цель: изучить познавательные способности обучающихся.

Метод: студентам были предложены тесты на проверку мозговой активности и внимания. Результаты показали способности студентов, связанные с аккуратностью и вниманием.

При исследовании определения социаль-

ной активности была предусмотрена цель развития их социальной активности.

Метод: студентам было предложено участвовать в командной работе и социальных проектах. Это помогло развить их социальные навыки.

При изучении использования образовательных методов в развитии творческого мышления учащихся ставилась цель проверить эффективность различных образовательных методов.

Метод: обучение студентов традиционными и инновационными методами.

Результаты показали эффективность инновационных методов.

Далее мы изучали развитие мотивации студентов к чтению книг в каждой образовательной организации.

Цель: изучить влияние чтения на учебу студентов.

Метод: студентам было предложено прочитать определенные книги и пройти тесты для оценки их знаний. Результаты показали важность чтения в обучении.



По результатам исследования установлено, что социальная среда, окружающая учащихся, оказывает большое влияние на развитие их отношения к книгам и чтению и практически все учащиеся, читающие книги, сообщают родителям и друзьям о том, что

они интересуются книгами и читают.

В заключение можно сделать вывод, что на сегодняшний день вполне обоснованно по указу президента в каждом учреждении создаются на основе нейропсихологии условия, способствующие духовному просвещению, продвижению чтения, обеспечение доступа к информационной сфере: IT-парки, центры молодежи и т.п.

ЛИТЕРАТУРЫ:

1. Выступление президента Ш.М.Мирзиёева 2023 год.

2. Алимов, А. Чтение и творческая деятельность. – Ташкент: Издательство Национального университета Узбекистана, 2019.

3. Выготский Л.С. Педагогическая психология / Под ред. В.В. Давыдова. – Москва: Педагогика-Пресс, 1996. – 536 с.

4. Сидоров И. Нейропсихология и образование. – Ташкент: Духовность, 2021.

5. Мурадов, Б. Общественная деятельность и студенты. – Ташкент: Институт высшего образования, 2022.

6. Косимова, Ф. Организация творческих проектов. – Ташкент: Образовательный процесс Республики Узбекистан, 2023. ■



ПУШКИНСКИЕ ДНИ В АНДИЖАНЕ



Аннотация: Бугунги кунда ўқувчи кўпроқ утилитар адабиётни ўқишга мойил бўлиб қолган, у муайян мавзуга тегишли китобларни танлайди. Улар учун иш, ўқиш ва ҳоказо соҳалардаги муаммоларни ҳал қилиш учун аниқ ва максимал маълумот олиш муҳим. Классик адабиёт эса кутубхона рафларида қолиб кетмоқда. Ўқувчи нафақат адабий қаҳрамоннинг хатти-ҳаракати, руҳияти ва унинг сабаб-оқибатларини тушуниш имкониятидан, балки нутқ маданиятини ривожлантириш ва маънавий камол топиш имкониятидан ҳам маҳрум бўлмоқда. Ушбу мақолада шу ҳақида сўз боради.

Андижанский областной информационно – библиотечный центр имени З.М.Бабура принял активное участие в праздновании 225-летия со дня рождения Александра Сергеевича Пушкина.

В честь дня рождения великого русского и всемирно известного писателя и поэта, а также поддержки международного русского языка с 1 по 6 июня была объявлена Неделя Пушкинской книги и Дня русского языка.

Цель недели – творческое осмысление А.С.Пушкина и его литературного наследия современной молодежью, в частности, учащимися младших, средних и старших классов, мотивировать детей и юношество, молодежь к чтению русской классики.

Важно было привлечь внимание к значимости его, писателя мирового значения, вклада в развитие мировой и русской литературы, русского языка.

В течении 6 дней читателям и пользователям библиотеки, жителям области были представлены, в том числе и в режиме онлайн, тематические мероприятия по данной теме, рассчитанные на каждую конкретную группу населения. Хроника недели была такова:

1 июня в Андижанском областном информационно – библиотечном центре имени Бабура (далее ИБЦ) прошел флешмоб «Я люблю Пушкина», ознаменовавший начало недели Пушкинской книги. ►



Флешмоб «Я люблю Пушкина»

Великий русский писатель и поэт известен как основатель русского литературного языка, благодаря чему его произведения легко читаются и запоминаются читателями, особенно читателями, проживающими вне России, их поражает богатство и сила слова, логика и красота формы стиха.

Именно этому направлению в творчестве А.С. Пушкина, с комментариями виднейших литературоведов о его вкладе в развитие русской литературы и русского языка, были представлены издания на рекламной – художественной выставке «Русский язык — это прежде всего Пушкин»



Ведь именно Пушкин стоял у истоков русского литературного языка и не зря у него репутация отца русской литературы. И в какой бы стране мы не жили, мы познаем историю России, ее культуру, красоту ее пейзажей, характер русского народа благодаря его произведениям, произведениям, которые пропитаны национальной гордостью, чувствами душевной русской доброты.

Если кто читал «Путешествие из Москвы в Петербург», то запомнил его слова, что язык «общая принадлежность всего рода человеческого», это зеркало души нации.

Челлендж «Читаем Пушкина» в исполнении пользователей библиотеки привлёк внимание тем, что вспомнились еще раз любимые стихи, были услышаны мелодич-

ность русского языка, одного из международных языков, языка страны, с которой у Узбекистана не только общая история, но и добрососедские отношения сегодня, крепкие культурные связи и экономическое сотрудничество.

Не остались в стороне и дети. Этой группой читателей занялась кафедра семейного чтения областного ИБЦ. У нее своя история возрождения традиций семейного чтения.

У сотрудников кафедры накоплен определенный опыт работы с родителями, а также с воспитателями детских садов в плане просветительских бесед для того, чтобы

громкие чтения стали одним из привлекательных времяпрепровождений в детском саду и вечерних чтений для детей перед сном.

Сегодня библиотека обслуживает более 300 пользователей семейных чтений и воспитанников 3-х детских садов Андижана, в которых среди различных тем тема творчества А.С. Пушкина занимает достойное место. Детям предлагают войти в мир его добрых

и поучительных сказок не только через чтение, но и через знакомство с иллюстрациями к его сказкам, обучение стихов, разгадывание загадок, влияющих на воспитание нравственных качеств ребенка.

3 июня в детском саду № 38 г. Андижана (заведующая Каримова Дилфуза Азимовна, воспитатель Исроилова Зухра) прошла беседа, посвященная творчеству Пушкина – сказочника. Учитывая специфику работы с детьми, заведующая отделом Бурханова Озода и старший библиотекарь кафедры семейного чтения ИБЦ Кадырова Умида использовали не только беседу с детьми о сказках Пушкина, но и показали театрализованные сценки по сказкам Пушкина. Кроме того, детям предложили раскрашивать любимых картинок и героев, полюбившихся

к сказкам и развитию мышления ребенка.



Таким образом, в рамках недели Пушкинской книги и всемирного Дня русского языка, дети окунулись в мир пушкинских сказок - это «Сказка о золотой рыбке», «Сказка о царе Салтане», «Сказка о золотом петушке» и узнали много интересного об авторе - юбиларе.



Да, участникам мероприятия «Мы в гости к Пушкину спешим» этот день доставил много интересных и познавательных минут соприкосновения с добром, справедливостью сказочных героев.

А ученики средних и старших классов с русским языком обучения в Булокбошинской районной среднеобразовательной школе № 4 (преподаватели русского языка Ахунова Тамара Уктамовна и Юсупова Матлюба) провели для учащихся театрализованное представление по «Сказкам о царе Салтане» и роману «Евгений Онегин».

Ну и в завершение Недели читательский клуб «В мире женщин», а также активисты - читатели ИБЦ в формате литературного салона провели вечер на тему «Известный и неизвестный Его величество ПОЭТ!» Вечер включал два блока. Один из них был посвящен интересным фактам личной жизни и творческой деятельности поэта. А второй блок был представлен стихами и театрализованной сценой дуэли Пушкина. Вечер был удивительно теплым, проникновенным, где три поколения встретились на почве любви к великому и бессмертному гению – Александру Сергеевичу Пушкину.

Хочется отметить, что читательский клуб «В мире женщин» имеет своей основной задачей активизацию поддержки и изучения русского языка, объединение земляков на основе уважения к одному из международных языков – русскому и уважению к истории России. Поэтому радует, что подготовку данного мероприятия провели не только члены читательского клуба, но и учащиеся средних общеобразовательных школ № 30 г. Андижана и школы № 4 Булокбошинского района, а также студенты Андижанского государственного медицинского института.

Роковой выстрел на Черной речке до сих пор больно отдается в сердце всех, кто любит творчество поэта, кому по сердцу его гражданственность и патриотизм, кто любил и любит, кто поклоняется его бессмертному таланту, читая удивительные строки его бессмертного наследия.

Пушкин – это целый мир! Пушкин – это навсегда! Он с нами, невзирая на границы, на разные языки, он уже на протяжении более 150 лет есть любимый писатель и поэт, творчество которого не оставляет равнодушным уже нескольких поколений, очарованных его удивительным литературным даром. ■

Нигора Юлдашева

Заместитель директора по информационно-библиотечной работе областного информационно-библиотечного центра имени Бабура.

AXBOROT-KUTUBXONA FAOLIYATIDA IJTIMOIIY TARMOQLARNING O'RNI



Dilafruz Karimova

Andijon viloyati axborot-kutubxona
markazi ilmiy-metodika xizmati rahbari

Аннотация: Интернет и цифровые технологии внесли свои коррективы в деятельность библиотечных работников. Сегодня способы пропаганды литературы, распространения и доступности медиа-продуктов помогают библиотекарям по – новому работать, способствуют внедрению инновационных форм работы, использованию социальных сетей, предоставляя нашим читателям неограниченное количество возможностей к получению информации.

XXI asrda zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalari, xususan, internetning hayotimizdagi o'рни va ahamiyati shiddat bilan oshib bormoqda. Albatta, dunyoning istalgan nuqtasi bilan tezkor aloqa o'rnatish, zudlik bilan zarur axborot va ma'lumotlarni olish, bilim va ma'rifatni oshirishda internetning beqiyos o'рни va ahamiyati bor. Shuningdek, internetning paydo bo'lishi bilan juda ko'p sohalar, jumladan, kutubxona sohasi ham virtual dunyoga ko'cha boshladi.

Bugungi rivojlangan, zamonaviy hayotda barcha narsani masofadan turib buyurtma qilish orqali olishimiz mumkin. Masalan, o'qituvchilar hozirgi kunda onlayn o'qitish tizimida ta'lim berishmoqda, ovqatlanish uchun kafe yoki restoranga borish shart emas, onlayn buyurtma qilish kifoya, endi ko'chaga chiqib taksi kutib vaqt ketkazmaysiz, uni ham onlayn chaqirtirish mumkin.

Shuningdek, kutubxonaning ijtimoiy tarmoqlardagi saytlari va kanallarida elektron ma'lumotlar bazasi orqali vaqti bo'lmay yoki boshqa sabablarga ko'ra kutubxonaga kela olmaydigan kitobxonlarga masofadan xizmat ko'rsatish ommalashdi. Ularga qiziqishi va so'rovlari asosida zarur axborotlar, adabiyotlar va nashrlarning elektron shaklini (pdf, audionusxa) masofadan yetkazib berish xizmati yo'lga qo'yilgan. Bu nafaqat kutubxona foydalanuvchilariga, balki dunyoning xohlagan nuqtasidan, masofaviy yakka va jamoaviy foydalanuvchilarga xizmat ko'rsatishga imkon beradi. Elektron nusxa olishga bo'lgan buyurtmalar, albatta, mualliflik huquqi to'g'risidagi qonun doirasida amalga oshiriladi.

Ijtimoiy tarmoqlar axborot-kutubxona muassasalarining ma'lumotlarini keng yoritish va yangi o'quvchilarni jalb qilish uchun juda katta imkoniyatlarga zamin yaratib, kitob va mutolaaga e'tiborni jalb qiladi, kutubxonaning roli va e'tirofini oshiradi.

Zamonaviy kutubxonalar veb-sayti, ijtimoiy tarmoqlardagi rasmiy kanallari, xususan telegramm tarmog'i foydalanuvchi bilan asosiy interaktiv aloqa vositasi, kitobxon bilan eng ko'p

muloqot qiladigan samarali platformaga aylanib ulgurdi. Foydalanuvchilar yanada savodli va aqlli bo'lib borayotgan bu vaqtda kutubxonalar yangi texnologiyalar sohasida doimiy ravishda takomillashib borishi, rivojlanishi lozim.

Rasmiy kanallarini yangi qiziqarli loyihalar, foydalanuvchini kitob o'qishga undovchi va mutolaaga qiziqishini oshiruvchi kontentlar bilan muntazam to'ldirib borishi kerak. Ya'ni, kutubxona sayti, ijtimoiy tarmoqdagi kanallar va sahifalarni yangi loyihalar yoshlarning bo'sh vaqtlarini mazmunli o'tkazishlari uchun keng qamrovli "rang-barang" maqolalar, boshqa resurslarga havolalar, tanlovlar, viktorinalar, video va fotomateriallardan iborat qiziqarli kontent bilan to'ldirilishi talab etiladi. Bularning barchasi kutubxonaga foydalanuvchilarni jalb qilish, uning imidjini ko'tarish, mutolaani targ'ib qilishda kuchli vosita hisoblanadi.

O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan madaniyat hodimi, "Mehnat shuhrati" hamda "O'zbekiston Respublikasi mustaqilligining 30 yilligi" ko'krak nishoni sovrindori, respublikamiz va xorijda ko'zga ko'ringan tarixchi olim, sovet davrining qatag'on siyosati va uning ayanchli oqibatlarini o'rgangan eng yirik tadqiqotchi, tarix fanlari doktori Rustambek Temirovich Shamsutdinov bilan o'tkazilgan uchrashuv qechadan lavhalar. ►





Buyuk shoir Zahiriddin Muhammad Bobur tavalludining 542 yilligiga bag'ishlab "Iqro" xususiy maktabi bilan hamkorlikda "Biz buyuklar avlodimiz" mavzusida o'tkazilgan adabiy kechadan lavha.



Sharqiy Harbiy Okrugiga qarashli Andijon garnizoni harbiy qismda o'zbek mumtoz adabiyotining yirik vakili: buyuk shoir, tarixchi, geograf, davlat arbobi, iste'dodli sarkarda, boburiylar sulolasi asoschisi, temuriy shahzoda Zahiriddin Muhammad Bobur hayoti, ilmiy-

ijodiy merosi, davlatchilik va sarkardalik faoliyatini keng o'rganish va amaliyotga tadbqiq etish maqsadida "Zahiriddin Muhammad Bobur izidan" mavzusida o'tkazilgan ko'rik-tanlovning 2-bosqichi.

Axborot-kutubxona muassasasi faoliyati tarmoqlarda qancha ko'p reklama qilinsa, foydalanuvchilarning kutubxonalar fondlari, o'tkazilayotgan marafonlar, chellenjlar, ijodkorlar va mashhur insonlar bilan uchrashuvlar, taqdimotlar va boshqa turli tadbirlar haqidagi qiziqarli axborotlarni ko'proq ko'rib tursa, unda kutubxonaga tashrif buyurish istagi shuncha kuchayaveradi.

Bobur nomidagi viloyat axborot-kutubxona markazi fondida saqlanib kelinayotgan retro va yangi kelib tushayotgan adabiyotlarni targ'ib qilish va kitobxonni kitob mutolaasiga jalb qilishda zamonaviy usullardan foydalanib kelinmoqda. Ulardan, kutubxona mutaxassislari tomonidan tayyorlanayotgan buktreyler, buktuber va bukslam kitob targ'ibotini hamda uni mutolaa qilishga qiziquvchi kitobxonlar safini oshirishda samarali natija berib kelmoqda. Zotan, bugungi kun kitobxonlari kitob haqida qisqacha ma'lumotga ega bo'lishlari uchun multimedia, videorolik va qisqa metrajli filmlarni tomosha qilishga qiziqishmoqda. Misol uchun, kitobxon Pirimqul Qodirovning "Yulduzli tunlar" asarini mutolaa qilmoqchi, biroq, kitob nima haqida ekanligini bilmaydi. Shunda buktreyler, buktuber va bukslam yordamga keladi.

BUKTREYLER - kitob haqida videorolik orqali qisqacha ma'lumot berish. Asardagi eng qiziqarli voqea va hodisalarni kitobxonni ushbu asarni mutolaa qilishga jalb qilish, ovoqli o'qib



berish va asar yuzasidan suratga olingan filmlar, videofilm, animatsiya yoki sahna ko'rinishlaridan parchalarni o'zida jamlaydi.

Mixail Yurevich Lermontovning "Zamonamiz qahramoni" asari asosida tayyorlangan buktreyler.

BUKTYUBER - orqali asar qahramonlari va voqelik qiziqarli tarzda ochib beriladi. Kutubxonachilar kitoblarni eng qiziqarli bo'lgan parchalarini kitobxonga mohirona yetkazib berishga harakat qiladi.

XX asr AQSH adabiyotining yorqin namoyandasi, Nobel mukofoti sohibi Ernest Xemingueyning "Chol va dengiz" asari asosida tayyorlangan buktuber.



BUKSLAM – asar yuzasidan ijodiy video tayyorlashga aytiladi. Bunda kutubxonachi mutaxassislar yakka va guruh bo'lib asarning mohiyatini kreativ usulda (sahna ko'rinishlari, asar qahramonlarini gavdalandirgan holda) yoritib berishga harakat qiladilar.

Rus yozuvchisi Lek Nikolayevich Tolstoyning "Tirilish" asariga tayyorlangan bukslam.



Qiziqarli va yorqin olingan har uchala videoroliklar orqali kitobxonga asarni mutolaa qilishi uchun kamida 3 ta sabab keltirishi va yakunini jumboq qoldirishi maqsadga muvofiq. Bu kitobxonni o'ziga jalb qilmasdan qo'ymaydi va asarni topib mutolaa qilishga bo'lgan qiziqishini yanada oshirishga turtki bo'ladi.

Shuningdek, o'sib kelayotgan yosh avlod qalbida kitob mutolaasiga bo'lgan muhabbatni uyg'otish maqsadida mutaxassislar tomonidan audio ertaklar va audio hikoyalar tayyorlanib, rasmiy kanallarga joylashtirilmoqda. Ertaklarni onlayn tinglash havolasi: t.me/audio_ertaklar

Shuni alohida ta'kidlash joizki, audio ertak va hikoyalarga bo'lgan talab bugungi kunda ancha oshdi. Ota-onalar va maktabgacha ta'lim muassasalarining tarbiyachi xodimlari rasmiy kanalimizning izoh qoldirish rukniga ertaklar uchun minnatdorchiliklar bildirishi va har kuni yangidan yangi ertaklarning audio nusxasini so'rab o'z murojaatlarini yozib qoldirmoqdalar.

Xalqaro va milliy miqyosdagi muhim sanalar hamda buyuk zotlar va mashhur insonlarning tavallud kunlariga bag'ishlab tayyorlangan virtual ko'rgazmalar ham foydalanuvchilar tomonidan iliq kutib olinmoqda. Bunday ko'rgazmalar orqali kitobxonlar mavzu bo'yicha adabiyotlar bilan onlayn tanishib, kerakli ma'lumotlarni uyida o'qish yoki ish joyida o'tirgan holda olishga muvaffaq bo'lmoqdalar.

Bundan tashqari, qiziqarli onlayn viktorina, onlayn kvest va bukpazillar ham o'quvchi yoshlarning bo'sh vaqtlarini maroqli va mazmunli o'tkazish hamda bilimlarini oshirishga zamin yaratmoqda. www.libbobur.uz

AKMlarda so'rovnomalarning onlayn shaklda o'tkazilishi ham samarali natija bermoqda. Onlayn shaklda kutubxonaning ijtimoiy tarmoqlaridagi rasmiy kanallari hamda veb-sayt orqali turli xil platformalar yordamida tuzilgan keng ommaga taqdim etilayotgan so'rovnomalor orqali aholi, ayniqsa yoshlarning qanday kitoblarga qiziqishlari, axborot-kutubxona xizmati ko'rsatish va yurtimizda kitobxonlikni yanada rivojlantirishda kreativ loyihalarni tadbir qilishda asosiy omil bo'lib xizmat qilmoqda. ■

KUTUBXONA FAOLIYATIDA O'LKASHUNOSLIK TARG'IBOTI



Zebo Davlatova

Marhamat tuman axborot - kutuxona markazi axborot
bibliografiya xizmati mutahassisi

Аннотация: *Справочно-библиографический отдел Мархаматского районного информационно - библиотечного центра большое внимание в своей деятельности уделяет краеведческой работе, в том числе пропаганде истории района среди учащейся молодежи. В этих целях используют такие формы работы, такие как семинары с читателями, вечера, беседы, экскурсии. Большую роль в этом направлении играет читательский клуб, публикации в интернет каналах.*

Ma'lumki, moziy saboqlarini o'rganmay, kelajakni yaratib bo'lmaydi. Bu borada sevimli yozuvchimiz Abdulla Qodiriyning "O'tkan kunlar asaridagi" "Moziyg'a qaytib ish ko'rish xayrlik" degan iborasi be'jiz emas. Darhaqiqat, o'z tug'ilib o'sgan ona zamin tarixi, shu zaminda yashab o'tgan avlodlari va ularning bizga qoldirgan boy madaniy meroslari haqida kelajak

avlodga etkazish bugungi kunda har birimizning burchimizdir.

Men Davlatova Zebo Marhamat tuman Axborot-kutuxona markazi axborot bibliografiya xizmati mutahassisi vazifasida faoliyat olib boraman. Faoliyatim mobaynida shuni angladimki, tarixni o'rganish, idrok etish, ona zamin tarixi haqida yozilgan adabiyotlarni sevishtir.

asrab – avaylab kelajak avlodga etkazish har bir insoning balki biz kutubxonachilarning ham vazifamizdir. Bugungi kunda kitobxonlar orasida o'lkamiz tarixiga qiziqqanlar soni yildan yilga oshib bormoqda.

Mustaqillik tarixiy va madaniy meroslarimizni tiklash va muqaddas qadamjolarimizni o'rganishga imkon yaratdi. Hozirgi kunga kelib, milliy ma'naviyatimiz hamda o'zligimizni anglashning asosi tarix va madaniy meros ekanligini tushunib etish barobarida ularga e'tibor davlat darajasiga ko'tarildi. Shu maqsadda biz Axborot - kutubxona markazi axborot bibliografiya xizmati mutaxassislari o'lkamiz tarixini o'rganish, hamda yoshlarga o'rgatish maqsadida Andijon viloyati "Mingtepa madaniy meros" jamoat fondi, tuman hokimligi, Turon NTM o'quv markazi, hamda tarixchi olimlar bilan hamkorlikda o'tkazilgan o'quv seminarlari, tanlovlar, konferensiyalar, turli hil loyihalar, tadbirlar, uchrashuvlarda ishtirok etib, o'lkamizning boy tarixi haqidagi faktlarga asoslangan qiziqarli ma'lumotlar bilan o'z bilimlarimizni oshirib kelmoqdamiz.

2023-yil tumanimizda Andijon viloyati "Mingtepa madaniy meros" jamoat fondi, tuman hokimligi, Turon NTM oquv markazi hamda tuman Axborot- kutubxona markazi bilan hamkorlikda "Ko'hna Dovon sirlari" nomli forum tashkil qilindi.



Forumda nafaqat O'zbekiston Respublikasi tarixchi olimlari balki qo'shni Qirg'iziston, Xitoy tarixshunos arxeolog olimlari ishtirok etdilar.

Tadbir davomida Mingtepa tepaliklarida olib borilgan arxeolog qazilmalarda topilgan noyob topilmalar, Mingtepaning samoviy otlari haqidagi afsonalar va xaqiqatlar, ozodligimiz uchun kurashgan ajdodlarimiz hayoti ularning turmush tarzi xaqidagi ma'lumotlar barcha qatnashchilarni befarq qoldirmadi. Tadbir qiziqarli baxs-munozaralarga boy tarzda bo'lib o'tdi. Biz shunday buyuk tariximiz borligidan Mingtepadek ulug' yurtida tug'ilganimizdan faxrlanamiz va ushbu tariximizni o'rganishda kitobxonlar o'rtasida targ'ib qilishda olgan bilimlarimizdan foydalanib kelmoqdamiz.



Axborot-kutubxona markazimiz fondida 200 dan ziyod o'lkashunoslikka oid adabiyotlar mavjud bo'lib, kitobxonlar o'rtasida ushbu adabiyotlarni targ'ibotini amalga oshirish maqsadida, "Qadimiy va boqiy Mingtepa" nomli o'lkashunoslik burchagini tashkil qilganmiz, bu erda tumanimiz tarixiga oid adabiyotlar hamda ►

ijodkor hamyurtlarimizning sara asarlari va ular haqidagi ma'lumotlar o'rin olgan. Ushbu kitob ko'rgazmasidan o'lka tarixiga qiziqqan kitobxonlar o'zlari izlagan adabiyotlar va ma'lumotlarni topishlari mumkin. Bundan tashqari, kitobxonlarimiz uchun o'lkamiz tarixiga oid "Tumanimizning qadimiy ziyoratgohlari tarixi" nomli yo'l korsatkich, "Mingtepa qadim tarix durdonasi" mavzusidagi tavsiya ro'yxati, bugungu kunda Marhamat tumanida olib borilayotgan islohatlar va har bir sohadagi yutuqlar haqidagi ma'lumotlar jamlangan "Yuksalyotgan go'zal yurtim Marhamatim" nomlii qo'llanmalar mavjud bo'lib, bulardan tarix yo'nalishida izlanish olib borayotgan tadqiqotchilar, talabalar, o'quvchilar va o'lkamiz tarixiga qiziqqan kitobxonlar bimalol foydalanishlari mumkin.



Shuningdek, Axborot va bibliografiya xizmati tomonidan Axborot – kutubxona markazining rasmiy kanalida hamda ijtimoiy tarmoqlarida kuzatib boruvchi kitobxonlari uchun haftada bir kun reja asosida "Tumanimiz tarixiga bir nazar" mavzusida o'lka tarixiga oid qiziqarli ma'lumot-

lar, muqaddas ziyoratgohlar va qadamjolar, moddiy madaniy me'ros ko'chmas mulk obe'ktlari haqidagi ma'lumotlar berib boriladi.

Axborot va bibliografiya xizmatida tashkil qilingan "Olis moziydan sado" nomli o'lka-shunoslik klubi rejasiga asosan tarixchi olimlar, yozuvchi va shoirlar bilan birgalikida o'tkazilayotgan uchrashuvlar, kitob taqdimotlari, tumanimizda joylashgan muqaddas ziyoratgohlar va qadamjolarga sayohatlar, o'lka tarixiga oid turli seminarlar hamda tadbirlar aholi ayniqsa yoshlarni o'lkaga oid zarur ma'lumotlarga ega bo'lishiga zamin yaratmoqda.



Jumladan: tarixchi olimlar, o'qituvchilar hamda o'quvchi yoshlar bilan xalqimiz ozodligi yo'lida kurash olib borgan Mingtepa farzandi Dukchi Eshon bobomiz hayoti haqidagi xaqiqat va afsonalarga oydinlik kiritish maqsadida o'tkazilgan "Dukchi Eshon: tarix va xaqiqat" nomli ushrashuvda tumanimiz tarixchi olimlaridan Turon NMT o'quv markazi rahbari O.Xusanov va Obidjon Mahmud Dovoniy va bir qancha tarixshunos olimlar tadbir ishtirokchilariga Muxammadali xoji Sobir

o'g'li-Dukchi Eshonning biz bilgan bilmagan xaqiqatlari haqida aniq faktlar bilan ma'lumot berdilar. Dukchi Eshon hayoti va faoliyati xaqidagi ma'lumotlarni yig'ish maqsadida Tojikiston Respublikasiga amalga oshirgan ilmiy ekspeditsiya jarayonida to'plagan tarixiy ma'lumotlar haqida yig'ilganlarga so'zlab berdilar. Tadbir baxs va munozaralarga boy tarzda o'tdi.



O'lkashunoslik klubi faoliyati davomida Turon NTM o'quv markazi qoshida tashkil qilingan Mingtepa tarixiy muzeyi, Mirishkor ota, Bandi mozor ota, Mingtepa tepaliklari kabi bir qancha tabarruk maskanlarga "Tariximizni bilasizmi?" mavzusida sayohatlar uyushtirildi. Ushbu sayohatlarning asosiy maqsadi muqaddas joylarning kelib chiqish tarixi, boy o'tmishimiz, ajdodlarimizdan qolgan buyuk tariximizni o'rganish va kelajagimiz bo'lgan yoshlar o'rtasida targ'ibot – tashviqot ishlarini olib borishdan iborat.

Tumanimiz shoir va yozuvchilarining yangi nashrdan chiqqan kitoblarini "Tumanimiz qalamkashlari" mavzusida yangi kitoblar taq-

dimotlari o'tkazilib kelinmoqda. Jumladan sevimli shoira Xavasxon Qamchiyeva (Olimova) ning "Taqdiridan toblangan muhabbat", Abdusalom Isaqovning "Begona" nomli yangi kitoblarining taqdimotlari, shoira Saida Ziyov va yosh havaskor shoirlar bilan "Yosh havaskorlar" nomli uchrashuvlar tashkil qilindi.

Muhammad Yusuf tavalludining 70 yillik yubi-leyi sanasi munosabati bilan yurtimiz bo'ylab shoir ijodini keng kitobxonlar ommasiga tanishtirish maqsadida she'riyat muhlislari hamda qadrlil kitobxonlar uchun shoirning uy muzeyiga sayohat tashkil qilindi. O'lkashunoslik sektori tomonidan "Xalqi sog'ingan shoir" nomli videorolik tayyorlanib, "O'zbekiston, jonim to'shay soyangga" mavzusida she'riyat kechasida kitobxonlar e'tiboriga xavola qilindi. Uning she'rlari kirib bormagan qalb honadon yo'q. Ana shunday soddadil, o'zining har bir she'rida Vatanni madh etgan xalq sevgan shoir Muhammad Yusufdek qalbi otash inson bilan hamyurt hamnafas bo'lganimizdan faxrlanamiz....

Ushbu o'lkashunoslik bo'yicha o'tkazilgan har bir tadbirlar, kitob targ'ibotilari, uchrashuvlar bularning barchasi tumanimiz aholisi hamda yoshlarimiz o'rtasida o'z o'lkasini sevis, buyuk tarixini o'rganish, o'zi yashayotgan zamin tarixi va yashab o'tgan ajdodlar qoldirgan boy madaniy meroslardan faxrlanish tuyg'usini oshirishga hamda kitobxonalarning kutubxonalarga qatnovini ko'payishiga xizmat qiladi deb ishonch bildiraman. ■



MUNAVVAR YURT FARZANDI



Ashurxon Yuldasheva
Oltinko'l tuman axborot-kutubxona
markazi axborot-bibliografiya
xizmati rahbari



Аннотация: Статья посвящена известному журналисту, публицисту, поэту, автору многих изданных книг - Замире Рузиевой. Ее творчество отличает патриотизм, высокая гражданская ответственность. О ее творческом пути и влиянии на становление творчества многих андижанских писателей и поэтов вы узнаете, прочитав данную статью.

Axborot kutubxona markazlarida o'lkashunoslik faoliyatiga joriy yilda alohida e'tibor qaratilmoqda. Chunki, kutubxonalar foydalanuvchilarga o'z ona diyoriga oid kerakli manbalarni, malumotlarni yetkazib beruvchi ishonchli va qulay tizimga ega bulib ulgurdi.

Buyuk allomalarimiz hamda zamondosh yurtodshlarimizning o'rnak bo'lishga arziydigan hayot va faoliyatlariga faxr tuyg'usini uy-g'otish o'lkashunoslik bo'yicha axborot xizmatining asosiy maqsadlaridan biridir.

Oltinko'l tuman axborot-kutubxona markazi-

da bu borada AKM rasmiy kanali orqali «O'z o'lkangni sev va o'rgan» loyihasi doirasida ishlar olib borilmoqda. O'lkamizning tarixi, bugungi kuni va mashxur kishilari to'g'risida axborot, ma'lumot beruvchi manbalar tayyorlanib, ijtimoiy tarmoqlarda keng yoritib kelinmoqda.

Nafaqat tumanimiz, viloyatimiz, balki respublikamiz ma'naviy hayotida o'zining salmoqli va zalvorli o'rniga ega bo'lgan ijodkor shoira, jurnalist Zamira Ro'ziyeva bilan hamnafas, hamkor ekanligimiz bilan faxrlansak arziydi.

«Aslida Andijonning eski shahar hududida

tavallud topib..., keyin taqdir rishtasini Oltinko'l bilan bog'lagan, uzoq yillar poytaxt Toshkentda yashab ijod qilgan Zamiraxon anchagina hayot va ijod yulini bosib quyibdi» deb etirof etgan edi O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan madaniyat hodimi, taniqli adib, mohir tarjimon, «Shuhrat» medali sohibi Qamchibek Kenja.

Bu yo'ning qanchalik mashaqqatli, lekin sharaflı bo'lganligini davlatimiz tomonidan adibaga berilgan mukofotlar tasdiqlab turibdi.

2015 yilda "Shuhrat" medali bilan mukofotlangan. 2022 yilda Xalqaro Bobur mukofotiga sazovor bo'lgan. "Oltin qalam" sohibasi.

1989 yildan O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasi, 1983 yildan O'zbekiston jurnalistlar ijodiy uyushmasi a'zosi.

Zamira Ro'ziyeva fidoyi jurnalist, yetuk shoira sifatida ulug' Vatan-ona yurt tarovati, muhabbat va tinchlikni tarannum etuvchi asarlar muallifi.

Mamlakatimizda olib borilayotgan tub islohotlarda faol qatnashib, yangi O'zbekistonni barpo etish, xalqimiz farovonligini yuksaltirish yo'lida tashabbus va ibrat ko'rsatib kelmoqda.

Zamira Ro'ziyeva uzoq yillik tajribaga ega fidoyi va serqirra ijodkor sifatida tanilgan.

Uning vatanparvarlik ruhida she'rlari, dostonlari, publitsistik asarlari kitobxonlarga manzur bo'lib kelmoqda.

Faoliyati davomida 20 ga yaqin nazmiy, nasriy, publitsistik kitoblari orqali kitobxonlar e'tiborini qozongan. Uning she'rlarida jannatmonand vatanimiz timsoli aks ettirilgan bo'lib, muhabbat, do'stlik, yaxshilik va yomonlik, shukronalik mavzularda yoritilgan asarlari ko'p sonli o'quvchilar tomonidan sevib mutola qilinadi.

Shoiraning "Munavvar yurtim", "Gul islari", "Qirq o'rim soch", "Nashida", "Atirgulga aylanaman", "Oftobjamol", "Jon rishtasi", "Sarchashma", "Tashnadil", "Umid bog'i" nomli kitoblari allaqachon o'z o'quvchisini topgan.

So'nggi yillarda yaratilgan «Hayratning suvrati»(saylanma), «Ro'shnolik», «Dilchiroq», "Vasfimdagi Andijonim" kabi nazmiy va nasriy kitoblari "Sharq" nashriyot matbaa, "Adib", "Hilol" va "Yangi asr avlodi" nashriyotlarida chop etilgan.

Shoiraning Z.M.Bobur asarlariga tatabbu'lar yo'nalishida yaratilgan "Tashnadil" kitobi Bobur ensiklopediyasiga kiritilgan. Shuningdek Xalqaro Bobur mukofotiga munosib topilgan.

"Hayratning suvrati" saylanma kitobi o'quvchilar va adabiyotshunoslar tomonidan yuqori baholangan.

Keyingi yillarda shoira bolalar adabiyoti sohasida ham samarali ijod qilmoqda. Uning "Ziynatbog'", "Onamdayin aziz yurt" to'plamlari bolajon kitobxonlar e'tiboriga havola etilgan. O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasining "Adabiyot" nashriyotida chop etilgan "Xalinchagim hayyo-xuuv" kitobi esa mukammal musiqiy notalari bilan tayyorlanib, yosh san'atkorlarning shoira she'rlari bilan kuylangan qo'shiqlaridan tarkib topgan.

Uning "Muhabbatdan yaralgandir O'zbekiston", "Inson aziz", "Alpomish avlodlari", "Vatan sen oy, oftobim" kabi 80 ga yaqin qo'shiqlari O'zbekiston xalq artistlari Zulayxo Boyxonova, G'ulomjon Yqubov, Sultonposhsha O'dayeva, Xizmat ko'rsatgan artistlar G'iyos Boytoyev, Dilnura Qodirjonova, Sharofat Tojiboyeva, "Nihol" mukofoti sovrindorlari Raxshona Qo'ziyeva, Eldor G'ulomov, Gulmira Abdulaxatova, Xurshida Jo'rayeva va ko'plab yosh xushovoz xonandalar tomonidan sevib ijro etilgan.

Shoiraning hassos hofiza Dilnura Qodirjonova ijrosidagi "Ey dil" qo'shig'i "Yilning eng yaxshi qo'shig'i 2006" tanlovida g'olib bo'lgan, va respublika radiosining oltin fondiga olingan.

Yillar davomida Andijon viloyat hokimining to'rt marta faxriy yorlig'i, Mustaqillikning 20 yilligi, 25 yilligi ko'krak nishonlari, 2020 yilda "Ma'naviyat fidoyisi" ko'krak nishoni bilan taqdirlangan.

Uning Vatan mavzusidagi aksariyat she'rlariga Anor Nazarov, Bahrulla Lutfillayev, Abduhoshim Ismoilov, Avaz Mallaboyev, Qahramon Komilov kabi Respublikamizning taniqli bastakorlari kuy bastalaganlar.

Shuningdek, bir nechta qo'shiqlari san'at instituti talabalari uchun chop etilgan "Yakkaxon xonandalik" darslik qo'llanmasiga kiritilgan. ►



Xodjamberdiyeva Zamiraxon ijodi haqida O'zbekiston Xalq yozuvchisi Muhammad Ali, O'zbekiston Xalq shoirlari Halima Xudoyberdiyeva, Maxmud Toir, To'lan Nizom, Tursunoy Sodiqova, shoir va olim Ismoil To'lak, katta olim Sayfiddin Jalilov kabi ustozlar matbuot nashrlarida adabiy maqolalar yozib, shoira ijodiga yuqori baho berganlar.

Shoira yosh ijodkorlarga jonkuyar murabbiy, ustoz sifatida mashg'ulotlar o'tadi, viloyatning shahar va tumanlarida, chekka qishloqlarda xalqimizga targ'ibot-tashviqot ishlarini olib borish, adabiy uchrashuvlar o'tkazish kabi ishlarda faol ishtirok etadi.

Yosh xonanda Muslima Mirzayeva shoira she'rlarini kuylab Gruziya va Sankt Peterburgda o'tgan xalqaro ko'rik tanlovlarda ishtirok etib, oltin kubok soxibi bo'lgan. Toshkentdagi "Elnur" bolalar san'at dastasi yosh bolajonlari shoiraning 15 ga yaqin she'rlarini qo'shiq qilib kuylab xalqaro ko'rik tanlovlarda ishtirok etdilar.

Zamira Ro'ziyevaning publitsistik ijodi ham diqqatga sazovor. O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasi tashkilotchiligida nashr etilgan "Kim edigu kim bo'ldik", "Avlodlar yo'li", "Ming bir ibratli hayot", "Bugunning nafasi", "Ulug' saltanat vasfi" kabi salmoqli to'plamlarda o'z publitsistik ocherklari bilan ishtirok etgan. Bundan tashqari "Ishonch", "Ma'rifat",

"Vatanparvar" gazetalari, Respublika radiosi e'lon qilgan o'ndan ortiq ko'rik tanlovlarda ishtirok etib 1-2-o'rinlarga sazovor bo'lgan. 2022-yilda "Sharq Yulduzi" jurnalida e'lon qilingan "Daryodil muallim" essesi O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasining "Ayolga ehtirom" tanlovida ikkinchi o'ringa munosib topildi.

Qator yillarda Farg'ona vodiysining shahar va tumanlarida ta'lim muassasalarida yoshlar bilan «Siz ozod va obod yurt farzandlarisiz!», «Buyuk ajdodlarimizning munosib avlodlari», «Taqqirimsan, baxtimsan, erkin va obod Vatan!» mavzularida o'tkazilgan barcha tadbirlarda faol ishtirok etgan.

Zamira Ro'ziyeva 2020-2022 yilar davomida nafaqadagi ijodkor sifatida ham faol ijod qildi. «Yangi O'zbekiston», «Kitob dunyosi» kabi respublika gazetalari, «Bobur va dunyo», «Sharq yulduzi» jurnallarida o'zining salmoqli publitsistik maqolalari, badiiy essesi va turkum she'rlarini e'lon qildi. Respublika «Madaniyat va ma'rifat» kanalining Zahiriddin Muhammad Boburga bag'ishlangan ko'rsatuvlarda, «Bolajon» kanali ko'rsatuvlarida faol ishtirok etdi. Shuningdek Madaniyat vazirligi e'lon qilgan harbiy vatanparvarlik qo'shiqlar tanlovida shoira she'ri bilan aytilgan qo'shiq 1-o'ringa loyiq topildi. «Mardlar qo'riqlaydi Vatanni» harbiy mavzusidagi she'rlar tanlovida ham

ikkinchi o'rin sohibasi bo'ldi. Poytaxtdagi taniqli «Bulbulcha» bolalar ansambli bilan hamkorlikda bir necha yangi qo'shiqlar yaratishdi.








Jamoat ishlarida ham faol qatnashadi. Mamlakatimizda barcha sohalarida amalga oshirilayotgan islohotlarning mazmun-mohiyati va ahamiyati, istiqlol yillarida erishilgan yutuqlarni aholi, ayniqsa, xotin-qizlar va yoshlar o'rtasida keng targ'ib qilmoqda.

Ibratli oila bekasi. To'rt nafar farzandi, 11 nafar nabirasining sevimli buvijonisi.

Teran ijodiy asarlari, vatanparvarligi, fidoyiligi va jonkuyarligi bilan yurtdoshlarimiz hurmatini qozongan.

Sevimli shoiramiz o'z muxlislarini xushnud etish maqsadida hamon ijodiy izlanishda. Bu yo'lda adibamizga mustaxkam sog'liq va ijodiy barkamollik tilaymiz. Ijod namunalarini kutib qolamiz. ■

Zamira Ro'ziyeva asarlari



IJODKORNING SHARAFLI YO'LI



Shoxidaxon Shokirova

Bobur nomidagi Andijon viloyati axborot-kutubxona markazi axborot-bibliografiya xizmati bosh mutaxassisi

Аннотация: Литературная общественность, любители поэзии отмечают 80-летие со дня рождения одной из самых ярких поэтесс Турсунной Садыковой. Родилась в Андижане, училась и получила высшее образование в Ташкенте. Автор предлагает читателю не только полную подборку ее творчества, но и освещает основные вехи ее научной деятельности.

Tursunoy Sodiqova 1944 yil 22 dekabrda Andijon shahrida tug'ilgan. Bu yillar Yevropada misli ko'rilmagan qirg'in-barot urush ketayotgan tarixiy yillar edi. Bolalikning musaffo havolarini simirib, kamtargina bo'lsa ham, keldi-ketdili, gavjum oilada katta bo'ladi. Yetti yoshida mahalladagi 82-o'rta maktabga o'qishga borib, uni 1961 yilda bitiradi. Maktabni hamma fanlardan yaxshi va a'lo baholar bilan tugallaydi.

Tursunoy opaning dastlabki she'riy mashqlari maktabda o'qib yurgan paytlarida "Lenin uchquni" – bolalar gazetasida ko'rina boshlagan. Uning kitobga bo'lgan qiziqishi esa ta'rifga sig'masdi. Adabiyotga bunday

oshuftalik, so'z san'atining sirli olamiga bo'lgan muhtalolik keyinchalik uning murg'ak qalbida, o'zi bilmagan holda, g'unchalab, shonalab ketgani turgan gap.

1961 yil Tursunoy Sodiqova Toshkent Davlat universitetining filologiya fakultetiga hujjatlarini topshirib, imtihonlardan muvaffaqiyatli o'tib, sirtqi bo'limga qabul qilinadi. Toshkentdek shahri azimda o'sgan, kitob va she'riyatga mukkasidan ketgan Tursunoyning keyinchalik yaproq yozib, gullab, shig'il mevalar bergan shoirlik iste'dodi adabiyot qozonida pisha boshladi.

Tursunoy Sodiqova o'zidan katta avlod Saida Zunnunova, E'tibor Oxunova, Sanobar Hasanova, Gulchehra Jo'raeva, Gulchehra Nurillaeva va ularning ketidan kelayotgan o'ziga tengqur Oydin Hojievalar bilan adabiyotga yelkama-elka, o'ziga xos ovoz bilan kirib kelgan shoiradir.

1966 yil universitetni a'lo darajada tugatgan qahramonimiz Andijonga qaytadi.

1966-1976 yillar uning hayotida juda sermashaqqat, biroq nihoyatda taasurotlarga boy sermazmun yillar bo'lgan. Bu davrda u turmushga chiqadi, birin-ketin to'rtta farzandi - ikki o'g'il, ikki qiz tug'iladi.

Tursunoy tabiatan sho'x-shodon, shavqu zavqqa bag'ri to'liq ayol. U hayotni, odamlarni, tabiatni, ona yurtini, she'riyatni, go'zallikni qattiq sevadi va chuqur his qiladi. Ana shu muhabbat unga tuganmas, kuch-quvvat beradi.

Har qanday shoir o'zi mansub bo'lgan ona xalqining dardiga dardkash, g'amiga sherik, shodligiga hamroh bo'lgandagina haqiqiy ijodkorga aylanadi. Uning qulog'i hamma vaqt xalqining ko'ksida bo'lib, uning yurak urishini doimo his qilib turgandagina elning g'urur, vijdoniga aylanadi.

1976 yili uning "Kuy" nomli birinchi she'riy to'plami adabiyotning somon yo'lida porloq yulduzdek ko'zga tashlanadi. Shoiraning bu majmuasidagi she'rlarining ko'p qismi tabiatga, bahor, ona yurt manzaralari madhiga bag'ishlangan. Uning "Tong", "Sel quyadi", "O'rikzor gul to'kmay", "Gul fasli", "Yomg'ir yog'adi" kabi she'rlari hozirgi kunda ham o'zining nafis tarovatini, azaliy ohorini saqlagan holda kitobxonlarning qalbini bahoriy hislarga to'ldirib kelmoqda. Bu she'rlarda ona Vatanning takrorlanmas manzaralari shoir qalbigina ko'rishi mumkin bo'lgan noyob, yorqin ko'rinishlarda suratlanadi.

Eru osmonga to'lib ketgan anvoyi gullar hidi dimog'imizga urilgandek bo'ladi.

Behi guli oq kapalak,
Quvlar uni shabboda.
Gulga to'lmish yeru falak
Atir yog'ar havodan.

Xushbo'y jiyda yaprog'ida
Kuy o'qiyman xo'p mayin.
Boqar o'rik butog'idan
Dovuchchasi xo'mrayib.

- kabi nafis misralarni yaratish uchun nihoyatda o'tkir nigoh, oshiq qalb kerakligini haqiqiy she'r muxlislari tushunishsa kerak.

Ma'lumki, har bir qalamkashning ijodida uning individual qiyofasini belgilaydigan bir turkum she'rlari bo'ladiki, ularda ijodkorning shaxsi bilan bog'liq kechinmalarni ko'rish mumkin. Shu ma'noda shoiraning "Poezd o'tar", "Yomg'ir yog'adi", "Armonlarim", "Izhorsiz bayonlar" kabi she'rlari yurak iztiroblarining qog'ozdagi dilgir naqshlaridir.

Haqiqatda ham yashash, yaratish ishqiy yana qalbida jo'sh ura boshlagan shoira belni mahkam bog'lab, yengni shimarib, hayotning to'liqini dolg'alariga o'zini otadi. Ana shundan so'ng haqiqiy she'riy mo'jizalar dunyoga keladi. Uning qulog'i hamma vaqt halqining ko'ksida bo'lib, uning yurak urishini domo his qilib turgandagina elning g'urur, vijdoniga aylanadi.

Shu ma'noda 70-yillarda o'zining qator o'tkir muammoli maqolalari bilan respublika matbuotida dadil chiqishlar qilgan, viloyat miqyosidagi har xil katta-kichik yig'ilishlarda o'z fikrlarini dadil o'rtaga tashlayotgan fidokor ijodkorning 1979 yilda mashhur "Qog'ozbozlik" she'ri yoziladi va shu she'r tiniq osmonda chaqmoq chaqqandek hammani hayratga soladi.

Tursunoy Sodiqovanning mehnat faoliyati o'rta maktablarda dars berishdan boshlangan, keyinchalik Andijon Davlat chet tillar institutida, Respublika "Ma'naviyat va ma'rifati" markazida faoliyat ko'rsatadi. U "O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan madaniyat xodimi" unvoni bilan taqdirlangan.

Shoira ijodidagi eng salmoqli mavzulardan biri muhabbat, hijron, ayriliq mavzusidir. Ana shu ma'noda Tursunoyning she'rlarida ham yurak-bag'rini kuydirib o'tuvchi o'tli hislarning yolqini ko'zga tashlanadi.

Shuningdek, odob-ahloq mavzularida bitilgan maqolalarini "Andisha" (1988), "Mehrigiyo" ►

(1989), “Baxtli bo‘ling” (1989), “Baxt nima?” (1994), “O‘zbek she‘riyatidan an‘ana va o‘ziga xoslik” kabi nomlar bilan to‘plam va qo‘llanmalar tarzida nashr ettirgan.



Tursunoyning lirik qahramoni juda kuchli va samimiy muhabbat egasi. Taqdirning shavqatsiz, loqayd ko‘r irodasi ikki sevishgan qalbni bir-biridan mosuvo qilgan.

Shoiraning “Bizning xatolar” she‘ridan olingan misralarda o‘sha o‘tli armon, afsus va andishalari bizning ham yurak torlarimizni hazin chertadi. Uning “Gar ayriliq bo‘lmasaydi”, “Gurkiragan quvonchlarim siz bilan to‘ldi”, “Ming suluvni kuydirgan”, “Boshqalarga o‘xsholmadik”, “Muhabbatim, kimning bo‘ldim meni?”, “Yomg‘irdan so‘ng”, “Mening aziz yuragim”, “Vasiyat”, “Ma‘shum chora”, “Ko‘ksimdagi daraxt”, “Kuyganingiz yolg‘ondir”, “Yana paxta-zorda”, “Atirguldekkina edim”, “O‘git” she‘rlari ana shunday achchiq hijron va ayriliq haqidagi, o‘qiganki kishining qalbiga butun yuki bilan ko‘chib o‘tadigan umumbashariy darddir.

*Dardlarimiz buloq bo‘ldi,
bag‘rimizda vulqonlar,
Tuyg‘ularga til bermadik
na men o‘zim va na siz.
Bir-birovin izlab-bo‘zlab
topishganlar-insonlar,
Bizlar tog‘miz, tog‘lar kabi
zimdan nurab boryapmiz.*

Shoiraning muhabbat va hijron, visol va ayriliq haqidagi she‘rlarini o‘qir ekanmiz, bu ishq-muhabbat deganlari qanday bir sehrli va qudratli kuch ekanligiga yana bir bor amin bo‘lamiz. Uning tuyg‘ulari toshib, butun qalbi tabiat mo‘jizalariga oshufta bo‘lib, she‘rdan, ijoddan boshqa narsani tamoman unutib gul fasli-bahorga qalbini keng ochib, bahoriy go‘zallikni shimirayotgan daqiqalarda yozilganga o‘xshaydi.

Haqiqatda ham yashash, yaratish ishqiy yana qalbida jo‘sh ura boshlagan shoira belni mahkam bog‘lab, yengni shimarib, hayotning to‘lqinli dolg‘alariga o‘zini otadi. Ana shundan so‘ng haqiqiy she‘riy mo‘jizalar dunyoga keladi.



Tursunoy Sodiqova 70-yillarning oxiri 80-yillardan boshlab “bola-chaqadan ozgina qo‘li bo‘shab” oliy o‘quv yurtlarida o‘qituvchilik qilish bilan birga shoira sifatida avvalo viloyatda, so‘ngra respublikamizning boshqa viloyatlarida ham kitobxonlar bilan uchrashuvlar o‘tkaza boradi. Albatta uning so‘zga ustaligi, chechanligi, har qanday davrani o‘ziga qaratib olish qobiliyati talabalik yillarida ham sezilgan edi.

Yig‘inlarda odamlarni qiziqtirgan, hayotda har qadamda duch kelinadigan, biroq to‘g‘ri yechimini topish qiyin bo‘lgan savollarning javobini kattaroq davralarda ochiq aytish zarurati tug‘iladi.

Tursunoy Sodikova 80-yillarning boshlarida ilmiy tadqiqot ishlari bilan ham jiddiy shug‘ullanadi va yuqori natijalarga erishadi.

90 - yillarning o'rtalaridan boshlab Tursunoy Sodiqovanning ijodi falsafiy-didaktik yoki o'zi ataganidek, badi'alar yaratish bosqichiga kiradi. 1996 yil Tursunoy Sodiqova Respublika "Ma'naviyat va ma'rifat markazi"da bo'lim mudiri sifatida ish boshlaydi. Tabiatan jonkuyar tarbiyachi, faol jamoatchi, el suygan shoira va so'zga chechan voiz bo'lganligidan bu yo'nalishda butun salohiyatini ishga solib, mustaqilligimizni mustahkamlash uchun fido-korona mehnat qilishga kirishadi.

U ma'naviyat ishlari tashkilotchisi sifatida respublikada tuman ma'naviyat bo'limlarini tashkil etishda qat'iyat ko'rsatdi, ma'naviyatning fan sifaida o'qitilishining amalga oshirishida jonbozlik ko'rsatganlardan biri bo'ldi.

Xalqimizning boy tarixiy an'alarini yaxshi bilgan, yoshlarimizning ilmga, bilimga chanqoqligini yaxshi his qilgan, kelgusida xalqimizning yuqori ma'naviyatli xalq bo'lishini hamma narsadan yuqori qo'yadigan shoirimiz bu borada qator go'zal asarlar yaratdi.



1997 yilda "Mehrxolur", 1998 yilda "Hazrati ayol", 1999 yilda "Yoningdagi baxt", keyingi yillarda "Bolam derman", "O'g'lim senga aytaman", "Qizlarga atalgan so'zlar", "Kelin bo'lish ilmi", "Rizolik izlab", "Yashash tilsimi" nomli bir-biridan yaxshi badiiy-falsafiy asarlari dunyo yuzini ko'rdi.

Ushbu asarlar avval suhbat, nutq sifatida yuzlab anjumanlarda o'qilib, obdon xalqning nazaridan o'tgach, keyin kitob shaklida nashr etildi.

Tursunoy Sodiqovanning eng suyukli mavzularidan yana biri qaynona-kelin munosabatlaridir. Bu mavzu ham tobora ishlanib, sayqallanib darsliklarga tushadigan darajaga bormoqda.

Shu ma'noda "Hazrati ayol" hamda "Yashash tilsimi" kitoblaridagi oilaviy munosabatlarga bag'ishlangan maqola, suhbatlarda, ayniqsa kelin, qaynona haqidagi fikr-mulohazalar doimo bizda dolzarb bo'lib kelgan.

Tursunoy opaning kuyunchaklik va mulohazakorlik bilan olib borgan suhbatlari odamlarda yaxshi taasurot qoldirib, bu mavzudagi maslahat va o'g'itlarga ehtiyoj borligini ko'rsatdi. Ma'naviy tarbiyaning hozirgi sharoitda hal qiluvchi ahamiyatga ega ekanligini butun aqli, shuuri bilan tushunib his qilgan muallif jamiyatning bir xujayrasi bo'lmish oiladan, oilaning sofliqi, uning mustahkam va barqaror bo'lishi, oila a'zolarining bir-birlariga mehr-muhabbatli munosabatda bo'lishlari, ulardan aqlli va go'zal avlodlar paydo bo'lishi haqida kuyunib, yonib gapiradi.

Katta yig'inlarda, gazetalarda, radio - televidenie orqali og'ishmay, shu mavzuda uzluksiz gapirayotgan va ko'pchilikning ixlosini qozonayotgan shoir va voiz Tursunoy Sodiqova bo'ldi desak haqiqatni aytgan bo'lamiz. Uning jonli, xushta'b yoqimli suhbatlarini bugungi kunda faqat respublikamiz aholisi emas, balki qo'shni Qozog'iston, Qirg'iziston, Tojikiston, Turkmanistondagi qardoshlarimiz ham juda katta qiziqish bilan tinglaydilar.

Shoira bolalik olamini tark etib, dunyoni idrok qila boshlagan kunlardan buyon o'z xonadonida kuzatgan turli ayollar taqdirini, ularning erkak zoti hech qachon tushunib yetmaydigan o'y-xayollarini, ba'zan quvonch to'la, ba'zan achchiq alamlar o'rtagan hayotini xotirida jonlantirgan.

Tursunoy Sodiqovanning eng sevimli mavzularidan biri ona mavzuidir. Har safar ona timsolining yangi-yangi qirralarini kashf qilib, bu betimsol mo'jizaning fazilatlarini sanab ►

ado qilolmaydilar. Shu jumladan biz asarlari haqida so'z yuritayotgan shoira va taniqli voiz ham ona ta'rifiga qator-qator go'zal she'rlar va keyinchalik qattaroq xajmdagi ham she'riy, ham nasriy ta'riflardan iborat "Jannatim onam" nomli qasida ham yaratgan. Shoira ona haqida kuylar ekan, hech kimni takrorlamaydi. Uning ona haqidagi she'rlari katta bir dard bilan, zo'r zarb bilan yozilganligini his etish qiyin emas.

Umuman aytganda, shoira Tursunoy Sodiqovanning xoh nazmda, xoh nasrda bo'lsin yozgan barcha asarlari o'tli ilhom bilan yozilgan bo'lib, fikrlari yorqin, tuyg'ulari terandir.

Tursunoy opaning nasriy yozmishlari ma'naviyat va ma'rifatga oid lirik-didaktik suhbatlarida ham voizlik mahorati kitobdan kitobga olib borayotganligini sezmaslik mumkin emas. Suhbatlarning ko'zga yaqqol tashlanadigan fazilati ularning og'zaki tilimizga juda yaqinligidir. Suhbat sohibi ko'pdan-ko'p uchrashuvlarda tinglovchilar bilan yuzma-yuz muloqot qilib orttirgan boy tajribalari uning yozma nutqida ham o'sha ohangda, o'sha uslubda davom etadiki, tinglovchi-kitobxon voizning o'ziga xos ovozi ham eshitib turgandek bo'ladi.

Tursunoy Sodikovanning faqatgina shoira bo'lmay, voizlik tomon katta odimlar bilan qadam tashlay boshlaganini ko'rish mumkin. Buyuk jahongir Amur Temur, Muhammad Boburlar juda qisqa va biroq ta'sirchan nutq sohiblari bo'lishgan. Voiz Koshifiy, Hasan Basriylar voizlikda maktab yaratgan insonlardir.

Bugungi kunda Tursunoy ham shu sohaning taniqli vakillaridan biriga aylandi. Uning 1996 yildan boshla yangi tashkil etilgan Respublika ma'naviyat va ma'rifat markazida olib borgan faoliyatida undagi barcha imkoniyat qirralari namoyon bo'ldi.

Tursunoy Sodikovanning 2001 yilda nashr etilgan "Bolam derman" kitobida "Ma'naviyat sabog'i bugungi kunda nega kerak?" deb savol qo'yadi va unga o'zi shunday javob beradi:

"Sho'ro zug'umidan qutulgach, zudlik bilan o'zimizdagi toza tomirlarni uyg'otish, ma'naviy merosimiz bo'lmish milliy qadriyatlarimizni yoshlarning qalbiga jo etish, o'z yurtiga o'zi egalikka yaraydigan, vatanni asrash, yaxshi

inson bo'lib, vijdonini o'rta qo'yib ish tutadigan avlodni tayyorlash zarurati tug'ildi. Odamlarning ko'zini ochish, ularning ma'naviy didini uyg'otish kerakligi bilindi... Ma'naviy tarbiya bugungi kunda muolaja o'rnidadir".

Ma'naviy tarbiyaning hozirgi sharoitda hal qiluvchi ahamiyatga ega ekanligini butun aqli, shuuri bilan tushunib his qilgan muallif jamiyatning bir hujayrasi bo'lmish oiladan, oilaning sofliqi, uning mustahkam va barqaror bo'lishi, oila a'zolarining bir-birlariga mehr-muhabbatli munosabatda bo'lishlari, ulardan aqlli va go'zal avlodlar paydo bo'lishi haqida kuyunib, yonib gapiradi.

Voiz va shoira barcha katta-kichik asarlarida ona tilimizning benihoya go'zalligini, ifoda vositalarining mo'lligini his qilib va undan mohir zargarlardek foydalanib go'zal she'rlar va ajoyib suhbatlar yaratdi. Uning asarlarini o'qir ekanmiz, so'zlar nutq jarayonida toblanib, yarqirab yangi-yangi qirralarini namoyish qila boshlaydi. Uning jami suhbatlaridan atirgulning isi ufurib turadi! Va aytamizki, bu suhbatlar his tuyg'ularga boyligi, ta'rif va tavsiflarning shoirona ifodasi kishining qalb torini chertib, unga go'zal bir badiiy asar o'qigandek ta'sir etadi.

O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan madaniyat xodimi, shoira va adiba, bag'ri keng o'zbek oyimi 2017 yili vafot etdi. Uning yorqin xotirasi abadiy bo'lib qolmoqda.

Foydalanilgan manba.

O'zbek oyimi edi : bibliografik ko'rsatkich / tuzuvchi Z.Shaxobitdinova, Sh. Shakirova. - Andijon, 2024. - 24 b. ■



Bolalar uchun «Sehrlı juftak»

To'liqin Siddiq

O'zbekiston jurnalistlar ijodiy
uyushmasi a'zosi



Аннотация: *Детство, это пора новых познаний, сказок. К теме этой поры обращается автор. Он делится воспоминаниями о своем детстве, когда собирались родственники, знакомые и вели интересные беседы, рассказывали сказки.. Предлагаемая сказка – это сказка, которую он услышал от бабушки Инобатхон. Ее рассказы, сказки были удивительны по смыслу. Конечно, не все верили в правдивость, но слушали внимательно. С одной из них автор делится с читателями журнала. Это сказка о любви простого парня к дочери бая. Бай поставил ему условие, если он из Петербурга от царя Николая доставит бриллиант для калыма, то на свадьбу он даст разрешение. В сказке фигурируют подлинные исторические личности - российский царь Николай, ташкентский губернатор фон Кауфман. О приключениях бедного юноши вы узнаете, прочитав данную сказку. Сказка сопровождается рисунками автора.*

O'tgan asrning qoq yarmida tug'ilganman. Bolaligimda opamlar bilan Jalaquduq tumani-dagi Do'ngqishloqda yashovchi qarindosh-larimiz xonadonlariga mehmonga borardik. Qarindoshlar biri qo'yib, biri bizni mehmonga aytishar edi. Kunduzlari qishloqi bolalar bilan mazza qilib o'ynar edim. Kech kirishini entikib kutardik. Chunki quyosh botganda qarindoshlar sandal atrofida o'tirishib turli qiziqarli voqealarni hikoya qilishar edi.

Menga ayniqsa Inobat xolaning hikoyalari juda yoqar edi. Uning aytganlariga hech kim ishonmas, lekin hamma maroq bilan tinglardi.

Men ko'zimni yumib uhlaiyotgandek yotardimu butun vujudim quloqqa aylanardi. Inobat xola buni yahshi bilar gohida kulguli, gohida vahimali voqealarni bir xil maromda shoshilmay so'zlardi. Sizlarga ana shu ertaklardan birini ilindim.

Qishlog'imizda Xalcha xola ismli bir kam-bag'al kampir o'tgan ekan. Uning o'g'li Andijon qo'zg'olonidan keyin Sibirga surgun qilingan va o'sha sovuq o'lkalardan qaytmabdi. Kelini qo'qonlik bir savdogarga turmushga chiqib ketibdi. Ularning kichkintoy o'g'li Botirali buvisi bilan qolibdi. Botirali yo'qchilikda katta bo'lganiga qaramay qaddi-qomati kelishgan, ►

jismonan kuchli, odob-ahloqi yuqori bo'lib voyaga yetibdi. Qishloqdagi Po'latboyning xizmatiga kiribdi. Boyning bog'ida mevali daraxtlarni parvarish qilar, suv tarar, xosilni yig'ishtirar ekan. Xalcha xolaning uyida har kuni qozon qaynaydigan bo'libdi.



Sur'atlar muallif tomonidan chizilgan

Kunlardan bir kuni Botirali bog'da boyning yakkayu-yolg'iz qizi Charosni ko'rib unga oshiq bo'lib qolibdi. Qiz ham norg'ul yigitga kulib boqibdi. Shu shu Charos boqqa tez-tez kelar ular uzum ishkamlari ostida maysalarga o'tirishib suhbat qurishar, bir birlariga muhabbat izhor qilishdan charchamas ekanlar. Po'latboy bu xoldan habar topgach yigitni haydab yubormoqchi bo'libdi, ammo erkato y qizini ranjitishni xohlamabdi. O'ylab-o'ylab bir yo'lini topibdi. U Botiralini huzuriga chaqirib shundan debdi:

- qizim Charos bilan bir biringizni sevasizlar, shundaymi?

- ha, - debdi yigit, - birga turmush qurmoqchimiz.

- eh, ablah, men qizimni sen yalangoyoqqa beramanmi? – deya boy hayolidan o'tkazibdi ammo hursand bo'lganday o'zini ko'rsatibdi, yaxshi, unda rasm-rusmimizga ko'ra qalin berishing kerak bo'ladi. Menga ko'p narsaning keragi yo'q. Peterburg degan shaharga borib, Oqpodshohning taxti ravonidagi olmoslardan

birini olib kelsang bas. Katta to'y qilib Charosni senga nikohlaymiz debdi

Botirali Peterburg degan shahar borligini eshitgan, ammo uni qayerda ekanligini ham bilmasdi. Oqpodshoh degani uning tasavvurida ulkan bir devday edi. Xullas boy unga bajarib bo'lmas vazifani yuklaganini tushunib, lom-lim demay ortiga qaytibdi. Boy esa o'ylab topgan hiylasi ish berganidan yengil tortibdi. Endi yigit, - Oqpodshoh qaydasan, - deb yo'lga ravona bo'lsa ham o'sha yoqlarda yo'q bo'lib ketishi tayin edida.

Botirali uyiga borib suppada g'am chekib o'tiraveribdi. Buvisi uni yupataman deya urinibdi, ammo yigit na ovqat yebdi, na bir so'z aytibdi. Uch kecha kunduz o'tibdi Halcha xola bo'lib o'tgan voqeadan habar topibdi. Nabirasiga, - Shirmonbuloqdagi g'orga kirib, najot so'ra, - deya maslahat beribdi. – U ko'p mushkullarni oson qiladi. Yigit kech kirib qolganligiga qaramay Shirmonbuloqqa yo'l olibdi. Daraxt shoxlaridan mash'ala yoqib, g'orga kiribdi. Odamlar bu g'orga kunduzlari ham kirishga qo'rqishar ekan. Chunki uch to'rt qadam bosishing bilan vahima bosarkanda.

Yigit qo'rqmay ichkariga dadil kiribdi. Shu payt katta bir ilon echking bolasini bo'g'ib, yutmoqchi bo'lib turgan ekan. Botirali qo'lidagi mash'ala bilan mahluqning boshiga qattiq zarba beribdi. Ilon sudralib arang ko'zdan g'oyib bo'libdi. Yigit uloqchani turgazib, jilg'adan suv ichiribdi. Uloqcha dikir-dikir sakrab ko'zdan g'oyib bo'libdi. Ammo Botiralining qo'lidagi mash'ala o'chib qolgan ekan. U qorong'ilikda qayerga borishini bilmay qolibdi.

Xoh ishonang, xoh ishonmang, uzoqda nimadir yaltirabdi, kutilmaganda g'ordan bo'g'iq ovoz eshilibdi.

- nega kelding?

- najot izlab keldim, - debdi yigit.

- uloqchani o'limdan qutqarding, senga yordam qilganim bo'lsin. Senga sehrli juftak beraman uni kiyib qayerga desang o'sha yerga bir zumda uchib borasan.

Shu payt yigitning yoniga juftak tushibdi. Botirali juftakni ko'tarib tazim qilibdi:

- rahmat senga G'or egasi, yahshiligingni

unutmayman.

Yigit juftakni kiyib bir zumda uyiga uchib boribdi. Buvisiga g'ordagi hodisani aytib beribdi. Halcha xola nabirasiga kulcha tishlatib, oq yo'l tilabdi.

- Peterburgga, - deya Botirali juftakka buyruq beribdi va hech qancha o'tmay O'rusiyaning poytaxtiga borib qolibdi. Hech qachon shahar ko'rmagan yigit o'zini sehrli bir olamga tushub qolganday his etibdi. Tep-tekiz uzun ko'chalar, hashamatli binolar, ajoyib kiyimlarda viqor bilan yurgan zodagonlar...



Sur'atlar muallif tomonidan chizilgan

Atrofdagilar oddiy o'zbek yigitiga taajjub bilan qarashibdi. Shop mo'ylovli mirshab u tomon yugurib kelayotgan ekan, Botirali shu zaxoti binolar osha boshqa tinchroq joyda paydo bo'libdi. U shaharni aylanib yurib yana odamlar gavjum joydan chiqibdi. Kurash bo'yicha bellashuvlar bo'layotgan ekan. Unda O'rusiya imperiyasining eng kuchli polvonlari kuch sinashayotgan ekan. Muhlislarining diqqat e'tibori ulkan gilam yoyilgan aylana maydonda. Sibirlik va maskovlik polvonlar bellashuvi qizg'in pallaga kirgandi. Sibirlik polvon g'olib chiqqach, hakam uning qo'lini baland ko'tarib muhlislarga murojaat etibdi:

- Qani, orangizda sibirlik paxlavon Ivan bilan bellashadigan bormi?

Hech kim maydonga chiqishga jur'at eta

olmabdi. Shunda bellashuvni malikaoyim bilan kuzatib turgan Oqpodshoh – “Kim Ivanni yengsa men unga nima tilasa o'shani beraman”, - debdi. Gurjustonlik Vano polvon degan bahaybat bir pahlavon maydonga chiqibdi. Bo'yi 2 metr, vazni 200 kg keladigan raqibini Ivan bir lahzada ko'tarib yerga uribdi. Vano polvonning beli sinib, uni maydondan ko'tarib olib chiqib ketibdilar. Shundan so'ng Oqpodshoh boyagi so'zlarini qaytaribdi.

Qishloqdagi kurashlarda hech kim Botiralini yenga olgan emas edi. Shuning uchun u hech qo'rqmay maydonga chiqibdi. Mirshablar sharqona libosdagi yigitni ushlab, maydondan olib chiqib ketmoqchi bo'lishibdi. Oqpodshoh ularni to'xtatibdi:

Mayli kurashsin. Mayib bo'lsa o'zidan ko'rsin, Ivanni yengsa o'sha va'damda qolaman.

Muhlislar hursand bo'lishib har ikki paxlavonni olqishlabdilar. O'rispolvon kelgindi yigitni bir cho'qishda pachoq qilaman deya kulimsirab kurashga kirishibdi.

Botiralini bir ko'tarib otgan ekan, u juftak yordamida uchib tikka tushibdi. Ikki-uch bor bu hol qaytarilgach Ivan raqibini belidan mahkam quchoqlab kuch bilan yiqitmoqchi bo'libdi. Botiralining bilagi kuchli edi. Kutilmaganda u raqibining qo'lini egib, yerga bosibdi.

Ivan o'rnidan turib yiqilganligini tan olmabdi, norozilik bildiribdi. Muhlislar ham o'zlarining sevimli paxlavoni tarafida bo'lishib, qayta kurashsinlar, - deya hayqira boshlabdilar. Qayta bellashuv ham Botiralining foydasiga hal bo'libdi. Oqpodshoh o'z so'zida turib: - Ey, pahlavon, tila tilagingni – debdi.

- Ey Oqpodshoh, - debdi yigit. – Men sening hukmingdagi o'zbeklar yurtidan keldim. Sevgan qizimning otasi Po'latboy Peterburgga borib Oqpodshohning taxti ravonidagi olmoslardan birini qalin sifatida olib kelishimni aytdi. U shundagina qizini nikohimga olishga rozi bo'lar-kan. Beodoblik qilgan bo'lsam uzr so'rayman senda olmoslar ko'p shundan bir donasini men ►

oshiq-u beqarordan ayamasang...

- Boyning qizini shunchalar sevasanmi? – debdi Malika.

- Malikam, - debdi Botirali qo'lini ko'ksiga qo'yib, - jondan ortiq sevaman.

Go'zal rus malikasi Oqpodshohga yolvorib qarabdi: - Oshiq yigit Ivandek pahlavonni yengdi, endi va'dangizda turing.

Oqpodshoh ayyorona jilmayib qat'iy ohangda shunday debdi:

- O'rusiya imperiyasi taxtidagi olmosni so'rashga qanday xadding sig'di. Buning uchun sen jazoga loyiqsan.

Maydon atrofidagi yuzlab odamlar hayqirishib Oqpodshohdan bergan va'dasiga vafo qilishligini so'rashibdi. Mirshablar, otliq kazaklar bostirib kelishib to'planganlarni qamchi bilan savalay boshlabdilar. Malika – Oh, - deya hushidan ketibdi. Botirali sehrli juftakda baland bino tomiga chiqib olibdi. Qo'riqchilar uni qayerga g'oyib bo'lganini bilmay hayron emishlar.

- Ana, - debdi qo'riqchilardan biri. – Tomda.

Mirshablar uzun narvonlar keltirishib tomga chiqa boshlaguncha Botirali qishki saroyning ulkan minorasi tepasida paydo bo'libdi. Mirshablar, kazaklar yigitni tutamiz deb xoldan toyishibdi. Miltiqdan, hatto zambarakdan otgan o'qlari, to'plari ham yordam bermabdi.

Oqpodshohga bo'lib o'tgan hodisalar tushday tuyilarmish. Kechki payt malika bilan tillo naqshlar bezatilgan, harir pardalar osilgan honaga kirishib, par ko'rpalar yozilgan sim karavotga yotishibdi va uyquga ketishibdi. Tunda Botirali derazadan o'sha xonaga kiribdi. Bu unga qiyinchilik tug'dirmabdi, chunki sehrli juftagi bor edida. Oqpodshoh bilan malika cho'chib o'rnidan turib ketishibdi.

- Iblismisan, jinmisan qayedan kelding, - debdi Oqpodshoh qaltiroq ovozd.

- Ey podishoxu olam, seni zolim deyishardi, bilsam nomard ham ekansan. Va'dangda turmading. Menga olmosni bermaguningcha seni tinch qo'ymayman.

Malika yana Oqpodshohga yolvoribdi:

- Va'dangizda turing, janobi oliylari.

Oqpodshoh o'ylanib qolibdi va "Senga taxtiravondagi olmosni bera olmayman u avloddan avlodga o'tib kelayotgan silsila ramzi. Maqsading o'sha boyning qiziga uylanish ekan men Turkiston general gubernatori Fon Kaufmanga maktub yozib beraman bizning murojaatimizdan habar topsa Po'latboy sening oyog'inga yiqilib, o'ziga kuyov bo'lishiga yalinib yolvoradi. Maktubni ertalab olasan.

- Ey, Oqpodshoh, - debdi yigit. – Meni yana aldayotgan bo'lma, so'zing so'zmi?

- Chin podshohlik so'zim, - debdi janobi oliylari.

Ertalab botirali qishki saroyning muhtasham saroyiga kirganda, mulozimlar uni izzatu-hurmat bilan kutib olishibdi. Oqpodshoh chindan ham unga Chor hukumatining muhri tushirilgan maktubni beribdi. Yigit juftakni kiyib, - hayyo-hayt, - deya Toshkent shahriga general gubernator Fon Kaufman janoblari huzuriga ravona bo'libdi. Gubernator maktubni o'qib Botiralinini kechki ovqatga lutfan taklif etibdi.

- Sen saroyini, bog'imizni tamosha qilib turguningcha mening hizmatkorlarim Po'latboyini qizi Charos bilan huzurimga olib keladilar, – debdi.

Botirali kechgacha hashamatli saroy, antiqa daraxtlar ekilgan so'lim bog'ni hayrat bilan tomosha qilibdi. Gubernatorning malaylari uning har bir harakatini kuzatib borisharkan. Chunki Oqpodshohning maktubida Botiralinining har joyda birdan paydo bo'lib qolishining siri nimada ekanligini bilib olishlari zarurligi yozilgan ekan. Malaylar yigitning harakatida hech qanday g'ayri tabiiy holatni sezishmabdi. Zero Botiralida juftakning hizmatiga ehtiyoj bo'lmaptida.

Oqpodshoh aytkanidek Po'latboyini gubernator huzuriga olib kelishganda u mushukdek muloyib bo'lib, Charosni Botiraliga xotinlikka berishdan baxtiyor ekanligini aytibdi. Toshkentlik imom hatib nikoh o'qib yoshlarga fотиha beribdi. Kelin kuyov uzukka ko'z qo'yganday bir birlariga munosib edilar. Gubernator kuyov sarpolari o'ziga yarashgan yigitni huzuriga chaqirib shunday debdi:



Sur'atlar muallif tomonidan chizilgan

- Bizning muruvvatimiz bilan murodinga yetding endi marhamat qilib qanday bir zumda Peterburgga borib kelganing, mustahkam qo'riqlanadigan qishki saroyga kirib, Oqpodshohning yotoqonasida paydo bo'lganing sirini ayt.

Baxtiyorlikdan mast bo'lib turgan yigit juftakni yechib gubernatorga beribdi va tunda Shirmonbuloqdagi g'orga kirgani va g'or egasi unga sehrli juftak sovg'a qilgani haqida gapirib beribdi.

Gubernator hursand bo'lib juftakni kiyibdi va sinab ko'rish uchun, - Meni Qo'qonga olib bor, - debdi. Juftak joyidan jilmabdi.

- Menga yolg'on gapiribsan, muttaham, -deya jahl qilibdi Fon Kaufman. - Seni hibsga olib jazolayman. Charosni tushingda ko'rasan.

Shunda yigit juftakni kiyib saroy atrofini bir aylanishini so'ragan ekan Botirali gubernatorni hayratdan lol qoldirib ucha boshlabdi.

- Ana ko'rdingizmi men siz janob oliylarini aldaganim yo'q, - debdi yigit.

Gubernator juftakni qayta qayta kiyib dam saroyini aylanishni, dam Peterburga, dam Shirmonbuloqqa uchishni so'rabdi.

Ammo juftak joyidan qimirlamabdi. Mulozimlar ham juftakni kiyishib sinab ko'rishibdi, lekin natija bo'lmabdi.

Sizlar bilan Do'ngqishloqqa boraman, to'yinigizda ishtirok etaman, keyin menga Shirmonbuloqdagi g'orni ko'rsatasan, - debdi Fon Kaufman. U G'or egasidan juftakda uchishning sirini so'ramoqchi ekanda.

Do'ngqishloqda uch kechayu kunduz to'y bo'libdi.

Po'latboyning sahiyligi tutib, nozu-ne'matlarni odamlardan ayamabdi. Xalcha xolaning quvonchi cheksiz ekan. Butun qishloq yayrab yashnabdi. Nikoh kechasidan keyin Botirali gubernatorni Shirmonbuloqqa olib boribdi.

Izvosh qishloqqa kirib kelganda yelkasida pagoni bor, ko'ksi to'la ordenli oq kastim kiygan shop mo'ylovli to'rani ko'rishgan qishloq ahli hayron bo'libdi. Botirali tog' yonbag'ridagi g'orni ko'rsatibdi. Gubernator juftakni ko'tarib g'orga kirib ketibdi. Ancha ichkariga kirgach, uni vahima bosibdi. Qo'rquvdan ortiga qaytayotgan ekan, bo'g'i ovozni eshitibdi.

- Nega kelding?

- Mana bu sehrli juftakni bir qishloqi yigitga beribsan. Uni men kiysam uchmayabman. Agar men ham ucha olsam shu g'orga oltin-olmoslarni keltirib senga hadya qilaman.

- Buning iloji yo'q - debdi g'or. - Sehr kuchga kirish uchun juftakni kiygan odamning qalbi pok, dovyurak bo'lishi kerak. Seni qalbing tundanda qora, o'zing qo'rqqosan.

Gubernatorning jahli chiqib:

- Bu so'zlaring uchun javob berasan. G'orga zambarak keltirib, kunpayakun qildiraman, - debdi.

Shunda birdan shamol turib, to'fon kabi g'ordagi chang bormi, jins bormi aylantira boshlabdi. Gubernator ham gir aylanib g'ordan otilib chiqibdi. Rangi bir ahvolda oppoq libosi qorayib, yirtilib-titilib ketgan ekan. U omon qolganiga shukur qilib yugurganicha izvoshga o'tiribdi. Aytishlaricha o'shandan keyin Fon Kaufman ruhiy kasal bo'lib qolgan emish.

Botirali esa Charos va buvisi Halcha xola bilan baxtli hayot kechirishibdi. Ularga endi sehrli juftakni keragi yo'q, halol mehnat qilsang, bir-biringa mehribon bo'lsang shundan ortiq baxt bormi? ■



YUBILEY BILAN TABRIKLAYMIZ!!!

Аннотация: Да, работа библиотекаря не так значима, казалось бы, как работа учителя, врача, которые имеют счастье увидеть результаты своей работы практически в короткий период. Но работа библиотекаря оказывает неоценимое влияние на общество, воздействуя на духовное и патриотическое воспитание, на повышение профессиональности и развитие широкого кругозора личности не только читателей, но и самой себя.

Из данного интервью, проведенного с одной из профессиональных библиотекарей, долгие годы проработавшей директором Пахтаабадской централизованной районной библиотечной системы Ахмаджоной Саодат, которой в текущем году исполняется 80 лет, вы узнаете о ее славном трудовом пути, секреты ее успешного выполнения миссии просветительства в районе.



Suhbatdosh:

Kadirova Umidaxon
Elektron resurslardan
foydalanish umumiy o'quv
zallari xizmati abonement
sektori bosh mutaxassisi

Fidoyi kutubxonachi

Suhbatdosh:

Kutubxona - ziyo tarqatuvchi maskan. Ma'naviyat va ma'rifat dargohi. Xo'sh, ushbu dargohda kim faoliyat olib boradi? Kutubxonachi kim? Kutubxonachi o'quvchilarga formulyarlar ochadi, unga berilgan kitoblarning nomi va raqamlarini yozib qo'yadi, kutubxonada tartibni saqlaydi, eskirgan kitoblarni ta'mirlaydi, o'quvchilar bilan suhbatlar o'tkazadi. Faqat shumi?

Albatta yo'q! Aslida, kutubxonachining ishi bu qadar oddiy va oson emas. Kutubxonachi

eng avvalo, yuqori darajadagi akademik qobiliyatga ega, kitoblarni o'qish, tekshirish va tasniflashni biladigan, ehtiyotkor va sinchko, bilimli mutaxassisdir.

Kutubxonachilik kasbi bu butun dunyo! Ijod, madaniyat, bilim, muloqot dunyosi. O'quvchilarimiz kutubxonachidan o'zlariga kerakli ma'lumotlarni, yaxshi kitoblarni kutishadi, ularning xohish-istaklarini bilish, talablarini qondirish uchun kutubxonachi bilimdon, aqlli o'qituvchi, do'st va eng yaqin yordamchidir.

Kitobxonga uning ruhiy holatiga yaqin bo'lgan to'g'ri kitobni taklif qilish, qiziqtirish, mutolaa bilan maftun etish, qalbini to'ldiradigan adabiyotlarni, so'nggi yangiliklarni taklif etishga xarakat qiladigan, turli yoshdagi, turli kasbdagi, turli toifadagi insonlar bilan muomalaga kirisha oladigan va yaxshi munosabatda bo'ladigan, tafakkuri yuksak, haqiqiy psixolog bo'lishi kerak. Yoshlarning ijodiy qobiliyatlarini ro'yobga chiqarish, shaxs sifatida shakllanishi va jamiyatda o'z o'rnini topishi, har tomonlama komillikka erishishida asosiy vosila bo'luvchi yetuk mutaxassis bo'lishi shart.

Bugungi mehmonimiz shu sohada uzoq yillar foyiat ko'rsatgan Ahmadjonova Saodatxon aya (Tursunxon aya) bo'ladilar.

Saodatxon Ahmadjonova 1944 yilda Paxtaobod tumanida tavallud topgan.

4-sinfligidayoq shu tumandagi bolalar kutubxonasiga a'zo bo'ladi. Adabiyotni, mutolaani sevgani uchun bu dargoh uning sevimli maskaniga aylanadi.



Bolalar kutubxonasidagi ishchi xodimlarning kasbiga bo'lgan mehri, hushmuomalaligi ayniqsa kutubxona mudirasi Dusya Karlovnaning bolalarga bo'lgan munosabati Saxodatxon opada kutubxonachilik kasbiga mehr uyg'otadi.

Ushbu maskanda 16 yil foyiat ko'rsatgan opa oltita farzandlarini o'qimishli qilib tarbiyaladi. Turmush o'rtog'ining qo'llab-quvvatlashi tufayli Toshketdagi Madaniyat institutida tahsil oldi. 1980 yillarda opa Paxtaobod tumani Markaziy kutubxonasiga rahbar etib tayinlanadi.

Ustozlarining bergan o'g'itlari samarasi o'laroq Saodatxon opa 43 yil kutubxonada faoliyat yuritdi. Ustozlari Kobulov Qahhor Bobojonovich, Axunjanova Olga Yusupovna, Avazbek Abduraxmanovich Qo'ldashevlarning qo'llab quvvatlashi tufayli birinchi bo'lib tumanda oilaviy kitobxonlikni tashkil qilgan.



Ko'plab shogirdlarga ustozlik qildi. Keyingi yillarda esa Mahalla tizimida bosh malahatchi bo'lib samarali mehnat qildi. Hozirda 6 farzand, 16 nabira va 24 chevaralarining ardog'ida.

Suhbatdosh:

Saxodatxon opa, bugun siz bilan kutubxonachilik kasbi haqida suhbatlashamiz. Ikki og'iz so'z bilan o'zingizni qanday ta'riflagan bo'lardingiz?

S.Axmadjonova:

Men o'zimni oddiy inson deb bilaman. Men uchun boshqalarni fikri muhimroq. Meni shirin so'z, intiluvchan, muomalali, o'z kasbini fidoyisi, oqila uy bekasi va yaxshi maslahatchi deb bilishadi.

Suhbatdosh:

O'zingiz orzu qilgan cho'qqilarga yetdingizmi?

S.Axmadjonova:

Xa yeta oldim, ammo kamchiligim bor deb o'ylayman. Hozirgacha ham ilm olishdan mutolaadan to'xtaganim yo'q. Ustoz sifatida o'rnak ko'rsatishni zamon bilan hamnafas bo'lishni istayman.

Suhbatdosh:

Kutubxonachilik ishini yaxshi va yomon tomonlarini ayta olasizmi? ►

S.Axmadjonova:

Agar inson o'z kasbini sevsa, uning bilimdoni bo'lsa, yurakdan mehnat qilsa o'sadi va el orasida hurmat topadi. Men necha yil faoliyat ko'rsatib bu kasbni yomon tarafini ko'rmadim. Bor mehrim bilan kitobxonlarga xizmat ko'rsatdim. Balki muloyim bosiq inson bo'lganim faoliyatimda asqotgandir. Kitoblarni, kutubxonani sevdim. Men uchun kutubxonachilik - kasblarning a'losi

Suhbatdosh:

Sizning kuchli tomoningiz?

S.Axmadjonova:

O'zimni o'zim iroda qila olishim, asabiy xolatlarga tushmasligim va albatta hayot maktabini kitoblar orqali o'rganib kelayotganimda deb bilaman.

Suhbatdosh:

Sizning o'qiz tomonlaringiz?



S.Axmadjonova S.

Birovni xatosini yuziga aytolmayman. Lekin qilgan xatosini o'zi tushunib yetishiga undayman.

Suhbatdosh:

Jamoadi, ishda nimani qadrlaysiz?

S.Axmadjonova:

Intizomni, o'zini tutishini, topshiriqlarni

o'z vaqtida bajarishni, o'zi ustida muntazam ishlaganlarni va mas'uliyatli insonlarni qadrlayman.



Suhbatdosh:

Kitob siz uchun nima?

S.Axmadjonova:

Hayotni o'rgatuvchi murabbiy

Suhbatdosh:

Sizni ta'sirlantirgan kitob bormi?

S.Axmadjonova:

Abdulla Qodiriyning «O'tkan kunlar», O'tkir Hoshimov «Dunyoning ishlari» kitoblarini o'qiganimda yig'laganman.

Suhbatdosh:

Farzandlaringiz orasida sizning kasbingizni egallaganlar bormi?

S.Axmadjonova:

Farzandlarimdan qizim va kelinim kutubxonachilik sohasida faoliyat ko'rsatadi.

Meni kutubxona bilan bog'lab turgan yana bir narsani aytmoqchiman. Shaxsiy kutubxonam borligi. Undan farzandlarim, nabiralirim hamda mahalla yoshlari foydalanadi.

Suhbatdosh: ■

RAHMAT!!!



Hurmatli kutubxonachi faxriylar!
Sizlarni qutlug' yoshingiz bilan

TABRIKLAYMIZ



Orifaxon Do'stmatova
Andijon shahri



Jumagul Jabbarova
Jalaquduq tumani



Abdurashid Mamadaliyev
Oltinko'l tumani



Nasimaxon Aznabayeva
Andijon shahri



Им в 2024 году исполнилось бы...



...120 лет

Барабанова Анастасия Яковлевна,
заведующая 1-ой городской библиотекой г.Андижана,
с 1941-1966 год директор областной библиотеки.



...75 лет

Гильманова Рашида Абдуллаевна,
главный библиотекарь отдела каталогизации и
обработки областной библиотеки имени Бабура. Годы
работы в библиотеке с 1980-2010 год.



...75 лет

Виноградова Екатерина Афанасьевна
заведующая юношеским читальным залом областной
библиотеки имени Бабура. Годы работы в библиотеке с
1992-2012 год.



...75 лет

Миронова Вера Васильевна
заведующая отделом книгохранения областной
библиотеки имени Бабура. Годы работы в библиотеке с
1967-2000 год.

Включен в «Топ-100 людей современной России»



Ему еще не исполнилось и года, как началась война и отец был мобилизован на фронт, где в 1942 году погиб.

А его мама с годовалым ребенком была эвакуирована из родного Мелитополя Запорожской области Украины в Узбекистан с поэтапным размещением в Андижанской области. Воспитывался и рос Малеев в детском доме, так как мама попала в больницу и финансово не могла содержать сына. Более 9 лет он воспитывался в детдоме, где ему пришлось перенести практически все инфекционные болезни – корь, малярия, менингит, дизентерия – лечению которых впоследствии он посвятит всю свою жизнь.

Так, Узбекистан, в частности, Андижан стал его второй малой родиной. В 1958 году он поступает в Андижанский государственный медицинский институт имени М.И. Калилина, который оканчивает в 1964 году. ►

Дата рождения	22 июля 1940 (84 года)
Место рождения	Мелитополь, Запорожская область, Украинская ССР
Страна	 Узбекская ССР  Россия
Род деятельности	учёный
Научная сфера	микробиология
Альма-матер	Андижанский медицинский институт
Учёная степень	доктор медицинских наук
Учёное звание	профессор, академик РАН

Государственные награды и премии:



Орден
Александра
Невского



Орден
Почета



Орден
Дружбы



Премия Правитель-
ства Российской
Федерации в области
науки и техники



Государственная
премия Россий-
ской Федерации



На фото: Андижанский государственный медицинский институт имени М.И. Калилина в 60-е годы.

Наш земляк один из знаменитых инфекционистов с мировым именем. Он принимал участие в погашении почти 50 очагов крупнейших эпидемий инфекционных болезней – ТОРС «атипичная пневмония» холера, чума, геморрагическая лихорадка, птичий грипп, эбола, короновирс и другие - по всему миру: Ирак, Кения, Сомали, Бангладеш, Йемен, Индия.

В 1973 году защитил кандидатскую, а 1987 году — докторскую диссертации.

Каждый из нас применял такие медицинские препараты такие как инфузионные растворы «Хлосоль», «Ацесоль», «Дисоль», «Квартасоль», а также «Регидрон» и «Цитроглюкосолан». Так вот их автор Виктор Васильевич.

Им опубликовано более 520 научных работ, в числе которых 13 монографий. В 1989 году ему присвоили звание профессора.

За время своей научной и практической деятельности более 50 его учеников стали кандидатами и докторами медицинских наук. Он щедро делился своим опытом и знаниями с коллегами, за что в июне 2020 года был отмечен Знаком отличия «За наставничество» Указом Президента РФ за заслуги в профессиональном становлении молодых специалистов и активную наставническую деятельность.

В.В. Малеев включен в «Топ-100 людей современной России смелые поступки, достижения, открытия и живая история. 2014 год».

P.S. Виктор Васильевич не собирается на заслуженный отдых. И планы у него большие «Хочу быть полезен людям. Задумки есть. Я не люблю жить прошлыми заслугами и всегда думаю о чем-то новом..... На отдых вряд ли уйду.... Всегда будут тяжелые больные, которые меня найдут. Я постараюсь поставить диагноз, помогу. Для меня это важно. В конце концов, всегда буду востребован как переводчик, если в больницу привезут работягу-узбека. Вон, написал в ординаторской сто узбекских слов докторам: что болит, как болит... Я же узбекский учил...»



Использованная литература



Астахова Алла.
Свой среди чужих.



Малеев Виктор Васильевич.
Материал из Википедии —
свободной энциклопедии

Kutubxonamiz bilan har lahzada bogʻlaning!



Quyidagi «QR-kod»lar orqali kutubxonamiz faoliyatini kuzatib
borishingiz mumkin!



Andijon viloyat
AKM



Bobur sharq
tarixining gavhari



Buyuklar azizdir
har on



Audio ertak va
hikoyalar



Qalblarda barhayot
Muhammad Yusuf



Instagram



Facebook




Veb-sayt



Loyihalar



Youtube



Kelgusi sonda: В следующем номере:

Ma'naviyat gulshaniga sayr

Kitob-bilimlar sarchashmasi

Uch asar sharhi

Andijonlik qatag'on qurbonlari: aka-uka Niyoziylar

Kitoblar - universitetda ta'lim madaniyatini shakllantirishga ularning ta'siri

Путь к профессии

O'z yurtning sev va ardoqla

Quyosh yurakli inson

**HURMATLI HAMKASBLAR!
SIZLARNI HAMKORLIKKA
TAKLIF QILAMIZ**



**УВАЖАЕМЫЕ КОЛЛЕГИ!
ПРИГЛАШАЕМ К
СОТРУДНИЧЕСТВУ**